

**REPUBLIC OF UZBEKISTAN MINISTRY OF HIGHER AND
SECONDARY SPECIALISED EDUCATION**

**NAMED AFTER ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
ANDIZHAN STATE UNIVERSITY**

FACULTY OF FOREIGN LANGUAGES

**THE CHAIR OF PHONETICS AND LEXICOLOGY OF
ENGLISH LANGUAGE**

(5111400-English language and literature)

Theme: United components of speech

GRADUATION PAPER

**Presented by the student of the 4th–course of the 405th group of the chair
of “English phonetics and lexicology” Jumaeva Dinara.**

Supervisor: Djabbarova Z.

**Graduating paper was discussed in the chair of phonetics and lexicology
of the English Language, statement № 7 30 may 2014 year**

Andizhan – 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-5
1-BOB UYUSHIQ BO`LAKLAR HAQIDA.....	5-8
1-§ GAP BO`LAKLARINING UYUSHISHI.....	8-11
2- § UYUSHIQ BO`LAKLARNING BA`ZI UMUMIY XUSUSIYATLARI.....	11-16
2-BOB. UYUSHIQ BOSH BO`LAKLAR.	
1§ UYUSHIQ EGALARNING XUSUSIYATLARI HAQIDA.....	16-20
2-§ UYUSHIQ EGALARNING IFODALANISHI.....	20- 29
3- § UYUSHIQ EGALI GAPLARDA UMUMLASHTIRUVCHI BIRLIKLARNING QO`LLANISHI.....	29- 34
3- BOB UYUSHIQ KESIMLAR	
1- § KESIMLARNING UYUSHISHI	34-47
2-§ UYUSHIQ KESIMLARNING O`ZARO BOG`LANISHI.....	47- 53
3-§ UYUSHIQ KESIMLI GAPLARDA UMUMLASHTIRUVCHI BIRLIKLAR.....	53-59
4- BOB	
1- § UYUSHIQ BO`LAKLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI.....	59-72
2 - § UMUMLASHTIRUVCHI BIRLIKLARNING QO`LLANISHI BILAN BOG`LIQ USLUBIY HOLATLAR.....	72- 73
XULOSA.....	73-74
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	75-76

KIRISH

Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” nomli kitobida odamzod uchun hamma zamonlarda ham bebaho boylik bo’lib kelgan ma’naviyatning mazmuni, uning inson, jamiyat hayotidagi o’rni, ahamiyati keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etiladi. Ushbu kitobning “Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori” deb nomlangan 4-bobida asosan ta’lim-tarbiya sohasiga jiddiy e’tibor berilgan. Kitobning oldingi boblarida ma’naviyatning mazmun –mohiyati, uni shakllantiradigan asosiy omillar, ma’naviy va moddiy hayot uyg’unligi, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlarning ma’naviy mezonlari haqida, shuningdek, bugungi globalashuv davrida ma’naviy olamimizni turli salbiy ta’sir va tahdidlardan asrash va himoya qilish bilan bog’liq muammolar xususida batafsil to’xtalib o’tilgan.¹

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, har qaysi inson va jamiyatning ma’naviy dunyosiga aynan shunday ko’z bilan qarash odamni ongli yashashga, yetuklikka chorlaydigan bunday beqiyos qudrat manbaining hayotimizdagi o’rni va ahamiyatini chuqur hamda atroflicha tahlil qilish muhim bir haqiqatni, yani yuksak ma’naviyat yengilmas kuch ekanini anglatadi.

Izlanishning dolzarbligi: Hozirgi o’zbek adabiy tilida uyushiq bo’lakli gaplarning o’ziga xos xususiyatlari haqida anchagina tadqiqotlar olib borilgan. Shunga qaramasdan ularning o’ziga xos belgilari, nutq uslublarida qo’llanishi haqida fikr-mulohazalar yetarli emas. Shularni hisobga olib, bu konstruksiyalarning o’ziga xos belgilarini izohlashga harakat qildik.

Izlanishning maqsadi: Maqsadimiz hozirgi o’zbek adabiy tilidagi uyushiq bo’laklar, xususan uyushgan ega va kesimlar, ularning uslubiy o’ziga xosliklarini yoritishdan iboratdir.

Izlanishning predmeti: Hozirgi o’zbek adabiy tili sintaksisida alohida o’rin tutuvchi uyushiq bo’laklar, xususan uyushgan ega va kesimlar.

Izlanishning materiali: Izlanishni olib borishda uyushiq bo’laklar bo’yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlarning nazariy ma’lumotlari, internet manbalari, shuningdek, A. Nurmanov, A. G’ulomov va M. Asqarovalarning tadqiqot ishlariga murojaat qildik.

Izlanishning metodologik asoslari: Izlanishning metodologik asosini tilshunos olimlar A. Nurmonov, A. G’ulomov, M. Asqarova, G’. Abdurahmonov, A. Sayfullayev, I. Toshaliyev

¹ Islom Karimov, “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”

D.Ashurova,F.Ubayeva va boshqalarning ilmiy nazariyalari tashkil etadi. Mavzuni o`rganishda tilshunoslikda keng qo`llaniladigan tavsifiy,qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Izlanishning ilmiy yangiligi: Izlanishda taniqli yozuvchi A. Qahhor,P.Qodirov,A.Muxtor va boshqa yozuvchilarning asarlaridan, shuningdek, vaqtli matbuot manbalaridan olingan misollarni qiyosiy tahlil qilish asosida uyushiq bo`laklarning o`ziga xos tomonlari ochib berildi.

Izlanishning tuzilishi va hajmi: Izlanish kirish, to`rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Izlanishning umumiy mazmuni: Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, o`rganish obyekti va materiali, metodologik asosi, ilmiy yangiligi yoritilgan.

Ishning birinchi bobi “ Uyushiq bo`laklar haqida” deb nomlanadi. Unda hozirgi o`zbek adabiy tilida uyushiq bo`laklarning o`ziga xos belgilari batafsil yoritiladi.

Ikkinchi “ Uyushiq bosh bo`laklar” deb nomlangan bob uyushgan egalarning xususiyatlariga bag`ishlangan.

Uchinchi bobda uyushiq kesimlarning o`ziga xos belgilari haqida fikr yuritiladi.

Ishning so`nggi to`rtinchi bobida gap bo`laklarining uyushishi bilan bog`liq uslubiy jihatlar haqida mulohaza yuritiladi.

1-BOB UYUSHIQ BO`LAKLAR HAQIDA

Kishilar orasidagi o`zaro kommunikativ aloqada ma`lum maqsadlar uchun gapning turli ko`rinishlaridan foydalaniladi. Gapning tuzilish jihatdan turlari –sodda va qo`shma gaplar nutqiy aloqada fikr anglatish uchun keng qo`llanadi. Sodda gaplar fikr ifodalashdagi gapning asosiy ko`rinishidir. Predikativlik asosida tashkil topgan bunday gaplarda tugal ma`no ifodalash uchun uni tashkil etgan bosh bo`laklar –ega va kesimning bo`lishi yetarlidir. Lekin o`rni bilan ikkinchi darajali bo`laklar -aniqlovchi , to`ldiruvchi va hollarga ham murojaat qilinadi. Ma`lum bir fikr biror so`z orqali yoki predikativ munosabatdagi birikma orqali yuzaga chiqadi. So`z yoki birikma orqali ifodalangan gap sharoitga , suhbatdoshning fikriga va umuman , fikrning rivojiga qarab kengaya boradi.

Har bir gapda so`zlovchining ma`lum bir maqsadi o`z ifodasini topadi. So`zlovchi shu gap orqali biror narsa , voqea –hodisa, belgi-xususiyat va hokazolar haqida xabar beribgina qolmasdan, mana shu voqea-hodisa, predmetga o`zining shaxsiy munosabatini ham ifodalashga intiladi. Bu munosabat shodlik, nafrat, ajablanish, tasdiq, afsus, uzr, iltimos,

g`azab va boshqa ko`rinishda bo`ladi. Ba`zan aytilayotgan fikrning asosini ko`rsatishga, fikr bayonida yodga tushgan ma`lumotlarni qo`shimcha ravishda berib o`tishga, o`rni bilan tinglovchining diqqatini jalb qilishga to`g`ri keladi. Huddi shu o`rinda fikr ifodasi uchun gapning tuzilishi torlik qilib qoladi va shu tariqa sodda gapning murakkablashgan turi yuzaga keladi.

Turkiy tillar bo`yicha olib borilgan kuzatishlar orasida o`zbek tilshunosi G`. A. Abdurahmonovning ishlari diqqatga sazovor. Olim birinchi bo`lib gaplarning tuzilishiga ko`ra 3 turkumga ajratilishini / sodda gaplar, murakkab gaplar, qo`shma gaplar/ ko`rsatib o`tadi va murakkab gapni tashkil etuvchi sintaktik konstruksiyalar guruhiga ajratilgan bo`laklarni, undalmalarni hamda kirish bo`laklarning asosiy gap bo`laklari bilan sintaktik bo`g`lanishini “izohlash aloqasi” deb ko`rsatib, ularda yarim predikativlik mavjudligini hisobga olgan holda, mazkur konstruksiyalarni uchinchi darajali bo`laklar deb atash ma`qul degan fikrni ilgari suradi.²

Uchinchi darajali bo`laklar haqidagi fikrlarni A. R. Sayfullayevning ishlarida ham kuzatamiz. Ularda uchinchi darajali bo`laklar guruhiga kiritilgan undalma va kirish bo`laklar asosiy gap bo`laklariga muvofiqlashuv /соотносительная связь/ orqali bog`lanadi deb ko`rsatiladi.³

Tilshunos H. Boltaboyeva ilmiy ishlarida ajratilgan bo`laklar, undalmalar va kirishlarni sintagmatik bo`laklar deb nomlab, gap strukturasini murakkablashtiruvchi hodisalar qatoriga qo`shadi va ular ishtirok etgan gaplarni “sodda murakkab gap” va “murakkablashgan sodda gaplar” atamasi bilan izohlaydi.

Prof. A. A. G`ulomov undalma, kirish, kiritmalar gap bo`laklari bilan grammatik jihatdan bog`lanmasligi, ular sintaktik konstruksiyani kengaytirishini, murakkablashtirishini, lekin uni sodda gaplikdan chiqarib yubormasligini qayd etadi va shingga ko`ra bunday konstruksiyalarni “murakkablashgan gap” atamasi bilan nomlashni tavsiya qiladi.

Gap strukturasini murakkablashtiruvchi konstruksiyalardan biri- kiritmalarni ilmiy tekshirish obyekti qilib olgan I. Toshaliyev qator maqolalari va monografiyasida kiritmalarning grammatik va intonatsion jihatdan shakllangan gap strukturasini murakkablashtirishi, ularning faqat sodda gap sostavida emas, qo`shma gap strukturasida ham, mustaqil gaplar orasida va abzatslar ichida ham qo`llanilishi mumkinligi haqida fikr yuritib, ularni kiritma bilan murakkablashgan sodda gap va kiritma bilan murakkablashgan qo`shma gap yoki kiritmali

² G`. A. Abdurahmonov

³ A. A. G`ulomov

sodda gap / murakkablashgan sodda gap/ va kiritmali qo'shma gap/ murakkablashgan qo'shma gap/ atamolari bilan nomlash mumkinligini qayd etadi.⁴

Xullas, tilshunoslikda gap strukturasini murakkablashtiruvchi konstruksiyalar ishtirok etgan gaplarni nomlash masalasida xilma-xil fikr va mulohazalar mavjud. Bizning bu boradagi mulohazalarimiz quyidagicha:

I. Gapning struktura jihatdan turlarini aniqlashda predikativlikning asosiy rol o'ynashi ma'lum narsa. Sodda gap bir nisbiy tugal fikrni ifodalaydi, sostavi ayrim predikativ yadrolarga ajratilmaydi, intonatsion jihatdan shakllangan bo'ladi. Qo'shma gap ham struktura jihatidan sodda gapga o'xshash predikativ yadrolardan tashkil topgan, intonatsion va mazmun jihatdan bir butunlikga ega bo'lgan gapdir. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gapga teng bo'lgan qismlar mustaqil sodda gapdagi singari mazmun va intonatsion tugallikka ega emas, ularga birgalikda bir butunlik sifatida qarash kerak.

II. Gap strukturasini murakkablashtiruvchi konstruksiyalar sodda gap sostavida ham, qo'shma gap tarkibida ham qo'llana oladi. Shuni nazarda tutib, bunday konstruksiyali gaplarni sodda va qo'shma gap oralig'idagi gap ko'rinishi sifatida murakkablashgan gap nomi bilan atab, uning ikki turini murakkablashgan sodda gap va murakkablashgan qo'shma gap deb nomlash lozim.

III. Gap strukturasini murakkablashtiruvchi komponentlar 5 xil:

1. Uyushiq bo'laklar.
2. Ajratilgan bo'laklar.
3. Undalmalar.
4. Kirishlar.
5. Kiritmalar.

Bulardan uyushiq bo'laklar va ajratilgan bo'laklar o'zi qatnashayotgan gapning bo'lagi vazifasida kelib, gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishadi. Qolganlari esa gap bo'lagi funksiyasini bajarmaydi va ular bilan grammatik aloqaga kirisha olmaydi.

1-§ GAP BO'LAKLARINING UYUSHISHI

⁴ I. Toshaliyev

Akademik A.Hojiyev "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati" kitobida uyushiq bo'laklarga quyidagicha ta'rif beradi: "Gapda bir xil so'roqqa javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajarib, neng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi bilan bog'langan bo'laklar".⁵

O'zbek tilining sintaktik qurilishida uyushiq bo'laklar masalasi nazariy va amaliy qimmatiga katta bo'lgan muhim masalalardandir. Turkiy tillar grammatikalarida, rus tili grammatikalaridagi singari, uyushiq bo'lakli gaplar ikki turli atama bilan yuritiladi. Bir guruh turkologlar uyushiq bo'lakli gaplarni „Предложения слитного типа“, „Слитное предложение“ deb atasa, ikkinchi guruh turkologlar „Предложения с однородными членами“ yoki „Однородные члены предложения“ deb nomlaydi.

G. D. Sanjeyev „Qalmoq tili grammatikasi“ nomli asarida asosan uyushgan kesimlar haqida fikr yuritadi, shuningdek, uyushgan ikkinchi darajali bo'laklardan to'ldiruvchilarning uyushishi ustida bir oz to'xtaydi. Muallif bu asarining uyushgan to'ldiruvchilarga bag'ishlangan qismida uyushgan to'ldiruvchilarning juft so'zlardan bo'lishini, ular sinonimik va bir-biriga qarama-qarshi ma'noli so'zlar orqali ifodalanishini ko'rsatib o'tadi. Lekin uyushgan ikkinchi darajali bo'laklardan aniqlovchi va hollarning uyushishi to'g'risida hech narsa demaydi.⁶

N. P. Direnkova „SHor tili grammatikasi“ da uyushgan bo'laklarning bog'lovchi vositalar yordami bilan birikishi haqida gapiradi.⁷

Prof. A. N. Kononov o'zbek va turk tillariga oid grammatikalarida uyushgan bosh va ikkiinchi darajali bulaklarni alohida-alohida bayon etadi. Muallif turk tiliga oid asarida gapning uyushiq bo'laklarining ifodalanishi, bog'lovchi vositalar bilan qo'llanishi, bundagi ayrim xususiyatlar kabi masalalar haqida mulohaza yuritadi.⁸

Prof. M. B. Balakayev hozirgi zamon qozoq tilining sodda gap sintaksisiga oid asarida gapning uyushiq bulaklari to'g'risida ancha keng ma'lumot beradi. Muallif uyushiq bo'laklarning tiplari, ularning shakllanishi, yoyiq va yig'iq bo'lib kelishlari, bog'lovchi vositalar bilan qo'llanishi kabi masalalarni alohida yoritadi.⁹

D. Mayriqov qirg'iz tilidagi gapning uyushiq bo'laklarini maxsus tekshirib, ularning o'ziga xos grammatik xususiyatlarini ancha batafsil ochib berdi.¹⁰

⁵ A.Hojiyev "Lingvistik terminlarning izohli lug'ati"

⁶ G. D. Sanjeyev „Qalmoq tili grammatikasi“

⁷ N. P. Direnkova „SHor tili grammatikasi“

⁸ A. N. Kononov

⁹ M. B. Balakayev

¹⁰ D. Mayriqov

O'zbek tilida gapning uyushiq bo'laklari haqidagi ta'limot dastlab mualliflar guruhi tomonidan yozilgan „Til saboqlig'i" darsligiga kiritilgan edi. Bu hodisa darslikping „Gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari" qismida tekshirilib, uyushiq bo'lakli gaplar „Uyushiq gaplar" deb atalgan.

„Til saboqlig'i" ning IV bo'limida ikkinchi darajali bo'laklardan aniqlovchilarniig uyushishi haqida ba'zi mulohazalar aytilgan. Asarda to'ldiruvchi va hollarning uyushishi masalasi alohida ko'rib chiqilmagan.

Gapning uyushgan bo'laklari" atamasi dastlab o'zbek tili grammatikasiga oid adabiyotlardan „Nahv" da qo'llanadi. I. A. Batmanov o'zining „Очерк синтаксиса узбекского языка" nomli asarida uyushiq bo'lakli gaplarni "Слитные предложения" deb nomlaydi : „Tutash (слитный) gap deganda tarkibida bir necha uyushgan bo'laklari bo'lgan gap tushuniladi". Muallif uyushgan bosh bo'laklar ustida ancha mukammal fikr yuritadi, lekin uyushgan ikkinchi darajali bo'laklar haqida kam to'xtaydi.¹¹

N. Said va A. Yo'ldoshevlarning „Grammatika" sida uyushiq bo'lakli gaplar „Uyushiq muchalli gaplar" deb atalgan va bu bob birmuncha keng yoritilgan. Ular eski an'ana bo'yicha, uyushiq hollarni uyushiq to'ldiruvchilarga kiritgan.¹² Keyinchalik H. G'oziyev to'liqsiz va o'rta maktablar uchun tuzgan darsligida uyushiq bo'lakli gaplar haqida oldingi darsliklarga nisbatan ancha to'liq ma'lumot beradi. Muallif bu asarida uyushiq bo'laklarning tiplari, ifoda etilish yo'llari, bog'lovchilari va ularda tinish belgilarning qo'llanishi kabi masalalarni yoritadi.¹³

V. V. Reshetov „Современный узбекский язык" nomli kitobida uyushiq bo'lakli gaplar haqida shunday deb yozadi: „Uyushiq bo'lakli gaplar tarkiban sodda yoyiq gapdan farq qilmaydi". Muallif o'zbek tilidagi uyushiq bo'lakli gaplarni uch tipga bo'ladi: birinchi tipda birdan ortiq ega bitta kesimga bog'lanadi; ikkinchi tipda bitta ega bir necha kesimga bog'lanadi; uchinchi tipda bir necha uyushgan ikkinchi darajali bo'laklar bitta bo'lakka bog'lanadi.¹⁴ Bundan tashqari, o'zbek tilida gapning uyushiq bo'laklari, ularning tiplari, ifoda etilish yo'llari masalasini A. G'. G'ulomov o'zining qayta ishlangan „Sodda gap" nomli asarida tahlil qiladi.¹⁵

Uyushiq kesimli gaplar bilan qo'shma gaplarning o'zaro farqi esa F. K. Kamolovning „Qo'shma gaplarga doir masalalar" nomli asarida ancha batafsil izohlangan. Bundan tashqari,

¹¹ I. A. Batmanov

¹² N. Said va A. Yo'ldoshevlarning „Grammatika"

¹³ H. G'oziyev

¹⁴ V. V. Reshetov „Современный узбекский язык"

¹⁵ A. G'. G'ulomov „Sodda gap"

asarda qo'shma gap sostaviga kirgan sodda gaplarning egasi, aniqlovchisi, to'ldiruvchisi va hollari ham uyushib kelishi mumkinligi to'g'risida gapiriladi.¹⁶

2- § UYUSHIQ BO'LAKLARNING BA'ZI UMUMIY XUSUSIYATLARI

O'zbek tilida gap bo'laklarining uyushib kelish hollari o'zining uzoq tarixiga ega. Bu hodisa barcha turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi uchun ham mushtarak bo'lgan turk-runik yodgorliklarida ham uchraydi. Uyushik bo'laklarning ko'plab qo'llanganini XI asrda va undan so'ng yaratilgan asarlarda ham uchratamiz. Masalan: Chektilar sharbatu taom avval, Ikkisidin etushdi kom avval. (Navoiy)

Ushbu yil shubhaliq taomdin parhez qila boshladim. Pichoq va qoshiq va dasturxong'acha ehtiyot qilur edim („Bobirnom“).

Demak, hozirgi zamon o'zbek tilida gap uyushiq bo'laklarining qo'llanishi tasodifiy hol bo'lmay, balki tarixan shakllanib kelayotgan o'ziga xos sintaktik hodisadir. Bu o'zining quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- 1) uyushik bo'lak qismlari o'zaro teng aloqada bo'ladi;
- 2) ular gapda bir xil sintaktik vazifani bajaradi;
- 3) ular o'zi uchun umumiy hisoblangan bo'lak bilan bir xil munosabatda bo'ladi;
- 4) teng bog'lovchilar yordami bilan bog'lanadi yoki bog'lanishi mumkin;
- 5) sanash iitonatsiyasi orqali talaffuz qilinadi;
- 6) odatda, bir xil so'z turkumlaridan ifodalanadi.

Uyushiq bo'laklar biror morfologik belgiga ega bo'lsa: 1) bu belgi uyushik bo'laklarning eng oxirgi komponentiga qo'shilib, hammasiga taalluqli bo'ladi yoki, 2) grammatik belgi har bir uyushiq bo'lakka qo'shilib keladi. Masalan: O'rik, olma, shaftolilarning ko'rkam guldastalari, toza ruhli, quvnoq tabiatning mo'l-ko'l yoygan go'zallik sepi quyoshda turli rang va nur bilan

¹⁶ F. K. Kamolovning „Qo'shma gaplarga doir masalalar“

porlaydi (Oybek). Maktab oldidagi choyxonada hangomalashib o'tirgan edik. Gap oy va planetalarga uchish to'g'risida ketdi (gazetadan).

Misollarning har ikkalasida ham kelishik qo'shimchasi uyushiq bo'laklarning eng oxirgi komponentiga qo'shib kelib, oldingi komponentlarga ham taalluqli bo'lmoqda. A. N. Kononov bunday hodisani umumiy morfologik belgini „qavs tashqarisiga chiqarish" deb yuritadi. Yoqut tilida esa morfologik belgini gap uyushiq bo'laklarining har biri qabul qiladi.¹⁷ Agar uyushiq bo'laklarning har biriga logik urg'u tushsa, shuningdek, ularning har birini ta'kidlash lozim topilsa, u vaqtda uyushiq bo'laklarning har biri o'zbek tilida ham morfologik belgi qabul qiladi:

Bu bog'larda ozod mehnatning Jaranglaydi, sozlangan sozi, Bu bog'lardan yuksalar ko'kka
Tinch hayotning, baxtning ovozi.(Uyg'un)

Hammaning og'zida, ko'zida o'sha ikki og'iz mash'um so'z vahmi edi

(M. Ismoilov). Umrzoq ota... endi uning arvohiga fотиha o'qib, E'zoxonni, To'lqinni, Uchqunni
duo qiladigan bo'lib qoldi (H. G'ulom).

Uyushiq bo'laklarning o'zaro bog'lanishi teng bog'lovchilar, yuklamalar va pauza, intonatsiya yordami bilan bo'ladi. Teng bog'lovchilar yordamida bog'langan uyushiq bo'laklar, gap bo'laklarining o'zaro uyushish munosabatlaridagi ayrim xususiyatlariga ko'ra, intonatsiya yordamida bog'langan uyushiq bo'laklarga nisbatan ozmi-ko'pmi farq qiladi: bog'lovchilarning qatnashuvi uyushgan bo'laklarni o'zaro bog'lanish vositalarini va ma'no munosabatlarini ochiq, yanada aniqroq ifodalashni ta'min etadi.

Uyushgan bo'laklarning o'zaro bog'lanishida ishlatiladigan bog'lovchilar qo'llanish usullariga ko'ra asosan uch xil:

- 1) yakka qo'llanuvchilar: va, hamda, ammo, lekin, biroq, bilan;
- 2) takror qo'llanuvchilar: na... na, goh... goh, hoh...hoh, dam... dam, bir... bir, ba'zan... ba'zan, shuningdek, yana... yana kabi;
- 3) goh yakka, goh takror holda qo'llanuvchilar: ham, yo, yoki. Bular takrorlanib kelgani kabi, yolg'iz holda ham ishlatiladi.

Yakka qo'llanuvchi bog'lovchilar yordamida bog'langan uyushiq bo'laklar orasidagi pauza juda qisqa, takror qo'llanuvchilar yordamida bog'langan uyushiq bo'laklar orasidagi pauza esa uzun va ta'kidli bo'ladi.

¹⁷ A. N. Kononov

O'zbek tilida gapning uyushiq bo'laklarini bog'lash uchun teng bog'lovchilar — biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi bog'lovchilar qo'llanadi. Bu bog'lovchilar o'z vazifalariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Shulardan, xususan, ayiruvchilar deb atalib kelingan bog'lovchilarning hammasini, gapning uyushiq bo'laklaridagi vazifalariga ko'ra, faqat shu atama ostidagina bitta guruhga birlashtirish unchalik muvofiq ko'rilmadi. Chunki yo, yoki, yohud kabilar yordamida bog'langan uyushiq bo'laklarning biri mantiqan tasdiq, ikkinchisi inkor ma'nosida bo'ladi. M a s a l a n: Karim yo o'qiydi, yo yozadi (o'qisa yozmaydi, yozsa o'qimaydi). Odil kitobni yoki qalamni oladi (kitobni olsa, qalamni olmaydi, qalamni olsa, kitobni olmaydi).

Ayiruvchilar to'dasida goh... goh, dam... dam, ba'zan... ba'zan kabi bog'lovchilar ishlatilganda, hamma uyushiq bo'laklar mantiqan yo bo'lishli, yo bo'lishsiz ma'noda qo'llaniladi. Masalan: U tagdo'zi do'ppi ostida orqadan biram chiroyli ko'ringan o'rtamiyona kallasini goh u yoqqa, goh bu yoqqa burib, tirqishdan sinchiklab qaradi (M. Is mo i l i y).

Bu xil gaplarda goh... goh, dam... dam kabi takrorlanuvchi bog'lovchilar uyushiq bo'laklar orasidagi galma-gallik yoki birin-ketinlik singari munosabatni ko'rsatib turadi. Demak, bir atama bilan ataluvchi bu ikki to'da bog'lovchilar vazifalariga ko'ra ham, bir sostavdagi uyushgan bo'laklarda qo'llanish miqdori va o'rinlariga ko'ra ham o'zlariga xos xususiyatlarga ega. Shuni hisobga olib, ulardan bir to'dasini ayiruvchilar guruhidan „galma-gallik bog'lovchilari" atamasi bilan alohida ajratib olindi. Shunday qilib, o'zbek tilida gapning uyushiq bo'laklarida qo'llanadigan bog'lovchilar vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'lindi: biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi, galma-gallik bog'lovchilari. Ba'zan uyushiq bo'laklarni biriktirish uchun -u, -yu yuklamalari qo'llanadi. Bular yordami bilan ifodalangan uyushiq bo'laklarning munosabati o'zaro juda zich bog'langan bo'ladi. Ular o'zaro bog'langan uyushiq bo'laklarning birinchisiga qo'shib aytiladi, so'ngra juda qisqa pauza hosil qilinadi.

M a s a l a n: Qo'l hamma narsaga tez o'rganadigan yoshlik chog'larida u maktab bilan paxtaga chiqib, bir qizdan ikki qo'llab tezu toza terishni o'rganib qaytgandi (P. Qodirov).

Bag'dodu Istambulda, Kobilu Tehronda ko'rgan-kechirganlarini dam kulib, dam gijinib hikoya qilardi (gazetadan)

Shuningdek, -u, -yu yuklamalari zidlovchi bog'lovchilar funksiyasida ham keladi. Bunday holda birinchi bo'lak talaffuzidanoq ikkinchi bo'lakda zid ma'no ifodalanishi bilinib turadi. Ana shunday xususiyatlari bilan ular ikki bo'lakning o'zaro bog'lanishiga yordam beradi. Masalan: Yefim Danilovich xuddi gapiradigan bir qiyofada turib xalqqa qaradi-yu, gapirmadi (A s q a d M u x t o r).

Uyushiq bo‘laklar odatda bir xil so‘z turkumidan bo‘ladi. M a s a l a n: Zamiraning baland, ammo mayin ovozi bor edi (P. Q o d i r o v).

Bu gapda uyushiq aniqlovchilar (baland, mayin) bir xil so‘z turkumi — sifat orqali ifodalangan.

Ba‘zan uyushiq bo‘laklar turli so‘z turkumlari bilan ifodalanadi. Bunday holda ular ko‘pincha mazmunan yaqin guruhdagi so‘zlardan bo‘ladi. Masalan: Uyda Naimiy... na hassani, na o‘zini qayoqqa qo‘yishini bilmay o‘tirardi (A s q a d M u x t o r). Bu gapda to‘ldiruvchilar turli so‘z turkumlari: ot (hassani) va olmosh (o‘zini) bilan ifodalangan bo‘lsalar-da, uyushgan hisoblanadi. Chunki uyushish uchun so‘zning qaysi so‘z turkumiga mansubligi emas, balki uning bir xil leksik-semantik guruhga kirishi va gapda bir xil sintaktik funksiyada bir xil bo‘lakka bog‘lanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bir gapda uyushiq bo‘laklar bir yoki bir necha to‘da holida uyushadilar —tarkib topadilar. Har bir to‘dadagi uyushiq bo‘laklarning komponentlari izohlovchi bo‘laklarsiz, ya‘ni yig‘iq yoki tobe bo‘laklar bilan birga, yoyiq holda bo‘lishi mumkin. Masalan: Gavhar bu gaplarni u kungi bahsdagiday sho‘x ovoz bilan emas, bugungi bilganlariga xulosa qilib, sekin va yurakdan gapirardi (P. Q o d i r o v).

Siz Xumsondagi otangizni ham, Toshkentdagi onangizni ham tashlab, Botiralini deb, bizni deb, shu yerga ko‘chib kelgansiz (H. G‘ u l o m).

Olov, shuningdek, yirtqich hayvonlar bilan kurashishda, ular ustidan g‘alaba qozonishda ham ibtidoiy odamning eng yaqin ko‘makchisi sanalgan („Fan va turmush“).

Bundan tashqari, hozirgi zamon o‘zbek tilida gapning uyushiq bo‘laklari yozuvchilarning asarlarida va ma’ruzachilarning nutqida uslubiy vosita sifatida juda keng qo‘llanmoqda. Chunki ular fikrni aniq, to‘liq, obrazli ifodalaydi, shuningdek, nutqqa ifodalilik, emotsionallik va ko‘tarinkilik berish uchun xizmat qiladi.

2-BOB. UYUSHIQ BOSH BO‘LAKLAR.

1- § UYUSHIQ EGALARNING XUSUSIYATLARI HAQIDA

Egalar uyushmagan (yakka) holda kelishi bilan birga, uyushib kelishi ham mumkin. Uyushgan egalar grammatik jihatdan o‘zaro teng bo‘ladi. Ularning biri ikkinchisiga ergashmaydi, birini aniqlash uchun ikkinchisiga savol berish ham mumkin emas. Uyushgan egalar grammatik tomondan o‘zaro teng bo‘lib, boshqa bo‘laklarni — aniqlovchi va kesimni ergashtiradi. Aniqlovchi uyushib kelgan egalarning hammasiga baravar ergashishi yoki ularning ma’lum bir a’zosigagina ergashib, boshqa a’zolariga ergashmasligi mumkin. Lekin kesim uyushib kelgan egalarning hammasiga baravar ergashadi. M a s a l a n: O‘zining kechmish

bolaligi, qishlog'i, o'rtoqlari yodiga tushadi (O y b e k). Bu gapda uchta ega uyushib kelgan bo'lib, ularning hammasi „o'zining" aniqlovchisini va „yodiga tushadi" kesimini ergashtiradi. Lekin „kechmish" aniqlovchisini ularning hammasi baravar ergashtirmaydi, uni faqat „bolaligi" egasigina ergashtiradi. Uyushib kelgan egalar, uyushmagan aniqlovchi va kesimlardan tashqari, uyushgan aniqlovchi va kesimlarni ham ergashtirib kela oladi. Misollar: Bir-biridan qiziq, bir-biridan rangdor latifalar, hikoyalar yog'ildi (O y b e k).

Farg'onada qurilajak kanallar, suv omborlari, gidrostansiyalar va cho'llarda yashnaydigan o'rmonlar, bog'lar cholni quvontirdi, to'lqinlatdi (Oybek).

Tun salqinidan qunishib yotgan maysalar, ilk bahor chechaklari uyg'ondi, yashnadi (Sh. Rashidov).

Uyushiq egalarning kesimlari har besh darajadagi fe'l bilan ham ifodalanaveradi. Uyushiq egalarning kesimlari majhul darajadagi fe'l bilan ifodalansa, uyushiq egalar obyektini, boshqa darajadagi fe'llar bilan ifodalansa, logik subyektini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, uyushiq egalar aktiv konstruksiyali gaplarda logik subyektlarni²⁵, passiv konstruksiyali gaplarda logik obyektlarni ifodalaydi. M i s o l l a r:

1. Olimjon bilan Bekbo'ta o'z brigadalariga ketdilar (Sh. R a s h i d o v).

Muzikalar ingrashdan, bolalar kuylashdan, saf-saf odamlar yurishdan to'xtadi (P. T u r s u n).

2. Xurosonning eng uzoq burchaklaridan salom va tabriklar yog'dirildi (O y b e k). Bu joyda ilgari otga taqa, aravaga mix qoqilardi (I. R a h i m).

Uyushiq egalar, asosan, bir xil so'z bilan—ot yoki otlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Ba'zan egalar ot va olmosh kabi turli turkumdagi so'zlar bilan ifodalangan holda uyushib kelishi ham mumkin: ... sopol idish-tovoq, bir tomonda turli rangdagi ko'rpa-to'shak, yana allanimalar uyib qo'yilgan edi (A. Q a h h o r).

Uyushib kelgan egalar bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Ba'zi hollarda ular turlicha so'roqlarga javob bo'lib kelishi ham mumkin. Misollar:

1. Manmanlik, shuhratparastlik ko'p yomon kasal bo'ladi (A. Q a h h o r).

2. Bu paxta maydoni va uning atrofi Ko'korol deb yuritilar edi (H. N a z i r).

3. Katta-katta imoratlar, turli toifa odamlar, ularning g'alati kiyinishlari uni hayratga solar, hayratidan angrayib qolar edi (P. Tursun).

4. Ariqlarda qiy-chuv bilan cho'milib, qizg'in tuproqqa ag'anagan qora-qura bolalar, o'rikzorlarda o'rik qoqqan qizlar, havoda zarg'aldoqning „biyov-biyov"i va traktorning guldirovi, devor orqasida tandirda pishayotgan nonning hidi, olislarda chaylalardan, dala shiyponlaridan ko'tarilayotgan tutun ko'malari, bog'larda mevalarni qushlardan qo'riqlovchilarning shovqini — hamma narsa unga tinch hayotni va erkin mehnat nash'asini gavdalandirar edi (O y b e k).

Keltirilgan misollarning birinchisidagi egalar «nima», ikkinchisidagi egalar „qayerlar" so'roqlariga javob bo'lib kelsa, uchinchi misoldagi „odamlar" egasi „kimlar?" so'rog'iga, „imoratlar" va „kiyimlari" egalari esa „nimalar?" so'rog'iga javob bo'ladi. To'rtinchi misoldagi „bolalar", „qizlar" egalari ham huddi uchinchi misoldagidek „kimlar?" so'rog'iga, bu gapdagi boshqa egalar esa „nima?" so'rog'iga javob bo'lib keladi.

Uyushib kelgan egalarning grammatik shakliga qarab so'roqlar shaklining o'zgarishi (egalik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qilishi) ham mumkin. Bu esa turk tillarining, jumladan, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatidir. M i s o l l a r:

U janobning fikrlari, zavqlari, iltifotlari —tilimizning g'alabasidar (O y b e k)

... oyoqlarim, tizzalarim bir oz shilinibdi (O y b e k)

Uyushib kelgan egalar tuzilish tomondan birgina so'zdan yoki so'zlar birikmasidan iborat bo'ladi:

1.Uyushib kelgan egalarning har biri birgina so'zdan iborat bo'ladi: Ayniqsa Norbuvi bilan Qo'ldosh qishloqni yaxshi biladi (H. Sh a m s).

2.Uyushib kelgan egalarning ba'zilari (ba'zi a'zolari) birgina so'zdan, ba'zilari esa so'zlar birikmasidan iborat buladi. Shoxlatish, oziq berish mumkin (A. Qahhor).

3. Uyushiq egalarning hammasi so'zlar birikmasidan iborat bo'ladi: Kishi o'z-o'ziga talabchan bo'lsa, mayda gap, ... o'ziga bino qo'yish, yurakda kek saqlash ham yo'qoladi (Sh. R a sh i d o v).

O'z kuchiga ishongan xalq, uyushgan xalq, ozod mehnat qilgan xalq haqiqatan ham har ishni bajarishga qodir (Sh.R a sh i d o v).

Qayerga borishim, nima qilishim noma'lum (P. T u r s u n).

Takrorlangan egalar uyushiq ega hisoblanmaydi: Men... men sekretar

(A. Q a h h o r).

Takrorlangan egalarning bir elementi takrorlangan birikmali uyushiq egalardan farq qilishi lozim. Masalan: O'z-o'zini tanqid va quyidan bo'ladigan tanqid har taraflama qo'llab-quvvatlansin (gazetadan).

Uyushiq egalarning kesimlari ba'zan tushib qoladi, grammatik tomondan ifodalanmaydi. Lekin ular gapning umumiy mazmunidan anglashilib turadi. M a s a l a n: O'rtada supa va hovuz (O y b e k). Stol ustida yangi gazeta, jurnallar (Sh. R a s h i d o v).

Uyushiqlik, dastlab, ikki bo'lakdan hosil bo'ladi. Harakat yo holatning bajarilishida subyektning ishtiroki, predmetning belgisi, harakat yo holat obyektining miqdori kabilarga qarab uyushiq bo'lak a'zolari ko'paya boradi. Tekshirish natijasida ma'lum bo'lishicha, uyushiq egalarning ikki a'zoli turi ko'p qo'llanadi. Uch a'zoli turi ikki a'zoli turiga qaraganda, to'rt a'zoli turi uch a'zoli turiga qaraganda, besh a'zoli turi to'rt a'zoli turiga qaraganda kam qo'llanadi. Ularning ko'p a'zoli turlari esa yanada kamroq uchraydi. Masalan: Asqad Muxtorning „Daryolar tutashgan joyda“ qissasida uyushiq egali 65 ta sodda gap mavjud. Ularning 35 tasidagi uyushiq egalar ikki a'zoli, 16 tasidagi uyushiq egalar uch a'zoli, 6 tasidagi uyushiq egalar to'rt a'zoli, 4 tasidagi uyushiq egalar besh a'zoli, ikkitasidagi uyushiq egalar olti a'zoli, bittasidagi uyushiq egalar esa yetti a'zolidir. Shunday qilib, ikki a'zoli uyushiq egalar unumli hisoblanadi. Uyushiq egalar, uyushmagan egalar kabi, avvalo, atoqli hamda turdosh otlar bilan ifodalanadi. Uyushiq egalar turdosh otning jonli yoki jonsiz predmetlarni bildiruvchi turlari bilan ayrim-ayrim ifodalanib keladi. Ba'zan esa ular turdosh otlarning jonli hamda jonsiz predmetlarni ko'rsatuvchi turlari bilan aralash holda ifodalanadi. Jonli va jonsiz predmet tushunchalarini ko'rsatuvchi turdosh otlar bilan ifodalanib kelgan egalar bir xil uyushiq bo'lak zanjirini tashkil qiladi.

2-§ UYUSHIQ EGALARNING IFODALANISHI

Uyushiq egalar asosan otlar, shuningdek, otdan boshqa so'z turkumlari bilan ham ifodalanib keladi. Uyushiq egalar olmoshlar bilan, ko'pincha kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi, shuningdek, ba'zi hollarda o'zlik va ko'rsatish olmoshlari bilan ham ifodalanib keladi. Lekin so'roq, belgilash, birgalik, bo'lishsizlik kabi olmoshlar bilan deyarli ifodalanmaydi. Uyushiq egalar har ikki son va har uch shaxsdagi kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi, lekin birlik va ko'plikni ko'rsatuvchi bir shaxsdagi kishilik olmoshlari bilan ifodalanmaydi. Uyushiq ega vazifasida kelgan kishilik olmoshlari egalik qo'shimchalarini qabul qilmaydi. Kishilik olmoshlari orqali ifodalangan uyushiq egalar ko'pincha ikki a'zoli bo'ladi. Uch a'zoli olmosh-uyushiq egalar juda siyrak uchraydi. To'rt va o'ndan ortiq a'zoli olmosh (kishilik olmoshi)-uyushiq egalar esa uchramaydi.

Uyushiq egalar ot va olmosh orqali ifodalanishi bilan birga, otlashgan sifat, sifatdosh, son, fe'l bilan ham ifodalanadi. Otlashgan so'zlar, xuddi ot kabi, kelishik, egalik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qiladi hamda otning so'roqlariga javob bo'ladi. Uyushiq egalarning otlashgan so'zlar bilan ifodalanishi quyidagicha:

1. Uyushiq egalar otlashgan sifatlar bilan ifodalanadi. Bunda oddiy darajadagi asliy va nisbiy sifatlar otlashib, ega vazifasida keladi. M a s a l a n:

Har bir vijdotsiz, har bir iflos, har bir muttaham, har bir yirtqich uning satira qilichiga duch keldi (G`. G` u l o m).

2. Uyushiq egalar otlashgan sifatdoshlar bilan ifodalanadi. Bunda, ko'pincha, o'tgan zamon sifatdoshlari otlashib, uyushiq ega vazifasini bajarib keladi.

M a s a l a n: Uning eshikni ochgani uyga kirgani va joyiga yotgani xech kimga sezilmadi.

3. Uyushiq egalar otlashgan sonlar bilan ifodalanadi. Bunda, ko'pincha, sanoq va tartib sonlar otlashib, gapda uyushiq ega vazifasini bajaradilar: Miyasida chuvalgan kalavaday allanimalar aralash-quralash bo'lib, goh biri, goh ikkinchisi ustun kelar, so'ngra sahifaga tushish oldidan yana tutqich bermay yo'qoldi (H. Nazir). ...birinchi va ikkinchilar va'dalarining ustidan chiqib, kunlik normalarini oshirib bajarayotirlar (G a z e t a d a n).

Ba'zan jamlovchi sonlar ham uyushiq ega vazifasida kela oladi.

4. Uyushiq egalar otlashgan fe'llar bilan ifodalanadi. Uyushiq egalarning otlashgan fe'llar bilan ifodalanishi otlashgan sifat, sifatdosh, son kabi so'zlar bilan ifodalanishiga qaraganda kam uchraydi. Ko'pincha juft fe'llar otlashib, gapda uyushiq ega vazifasida keladi. Bunday uyushiq egalar, asosan, ikki a'zodan iborat bo'ladi. M a s a l a n: Fermaning oldi-sotdi, o'ldi-tug'ildilari hisobga olindi. Tinchliksevar mamlakatlar bilan oldi-berdi, bordi-keldimiz kun sayin kuchaymoqda.

Yuqoridagilardan tashqari, ma'lum bir so'z turkumiga kiruvchi ayrim so'zlar ham ba'zan shartli holda otlashib, uyushiq ega vazifasida qo'llanadi. M a s a l a n: „va“, „chunki“, „shuning uchun“ lar yordamchi so'zlardir kabi.

Uyushiq egalar ot va otlashgan so'zlar bilan aralash holda ifodalanib kelishi ham mumkin. M a s a l a n: Dalada asosan xotin-qizlar, o'spirin va keksalar ishlaydilar (Sh. R a s h i d o v).

.... ko'z oldida turli millat yo'qsillarining birlashgan kuchi va bu kuchning zulmat zanjirlarini parchalab, olg'a borayotgani ko'rinadi. (P. T u r s u n).

Uyushiq egalar ot va otlashgan sifat, son kabi soʻzlar bilan ifodalanganidek, undov yaa taqlid soʻzlar bilan ham ifodalanib keladi: Dod-voy, oh-uf borgan sari kuchaydi (S. A y n i y). Qattik chuvullash pasayib, uning oʻrnini salqin shamol gʻir-gʻiri, toʻrgʻay, qaldirgʻochlarning vijir-vijiri egalladi (H. N a z i r).

Hozirgi zamon oʻzbek tilida uyushiq egalar ikki yoʻl bilan oʻzaro teng bogʻlanadilar:

1. Biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi yordami bilan.

2. Biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi hamda teng bogʻlovchilar yordami bilan (aralash yoʻl bilan).

Uyushik egalar biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi yordami bilan oʻzaro teng bogʻlanadilar. M a s a l a n:

Supaning ikki yonida boshyalang Mansurov, qovogʻi qizarib, siniqib qolgan Bashorat, uning yonida notanish bir rus xotin, kamonday oldinga egilgan novcha Abdusamad qimir etmay, boshlarini quyi solib turishibdi. (A s q a d M u x t o r).

Biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi yordami bilan oʻzaro bogʻlangan uyushiq egalarning oxirgi aʼzosi „shu kabilar“, „boshqalar“ singari soʻzlar bilan deyarli ifodalanmaydi. Agar bu soʻzlar uyushiq eganing oxirgi aʼzosi sifatida kelsa, ulardan oldin, koʻpincha, bogʻlovchi qoʻllanadi. Masalan:

Gʻijjak, tanbur, chang, ud, nay, daf, va xokazo yangradi (O y b e k).

Pahlavon va boshqalar Navoiyning amir boʻlishi haqidagi xabarni katta quvonch bilan qarshiladilar (O y b e k).

Koʻp aʼzoli uyushiq egalar baʼzan intonatsiya va bogʻlovchilar yordami bilan aralash holda oʻzaro teng bogʻlanadi. Bunday vaqtda uyushiq eganing mazmunan oʻzaro mustahkam birikkan aʼzolari bogʻlovchilar yordami bilan, mazmunan oʻzaro mustahkam birikmagan aʼzolari esa intonatsiya yordami bilan bogʻlanadi.

Misol: Dildor, Xumor va Asalxon soqiylik qilishdi (Oybek).

Biriktiruvchi bogʻlovchilar ikki aʼzoli uyushiq egalarni hamda koʻp aʼzoli uyushiq egalarning oxirgi ikki aʼzosini oʻzaro biriktirib bogʻlaydi. Bunday vaqtda uyushiq ega aʼzolari sonini orttirish, sanashni davom ettirish mumkin emas. Uyushik egalar (uyushiq ega aʼzolari) orasida qoʻllangan biriktiruvchi bogʻlovchi sanashning tugallanganligini koʻrsatadi. Shu sababli bu xil

uyushiq egalarni (uyushiq egalarning ikkita-ikkita bog‘lanib kelishi bundan mustasnodir) shartli ravishda uyushiq yoki yopiq uyushiq egalar deymiz. Misollar:

Meni g‘alaba va xalqimizning baxti yupatadi (U y g‘ u n).

Odamlar, mashina va mototsikllar u yoqdan bu yoqqa o‘tgani-o‘tgan (A s q a d M u x t o r)

Ba‘zan teng bog‘lovchilar (biriktiruvchi bog‘lovchilar) ko‘p a‘zoli uyushiq egalarning oldingi a‘zolarini o‘zaro biriktirib bog‘laydi. Uyushiq eganing keyingi a‘zolari esa intonatsiya yordami bilan birikadi. Bu xil uyushiq ega a‘zolarining o‘zaro munosabati u qadar birikib ketmagan bo‘ladi; ular sonini ko‘paytirish, sanashni davom ettirish mumkin. Shuning uchun bunday uyushiq egalarni uyushiq bo‘lmagan yoki ochiq uyushiq egalar deymiz. Misollar: Uning orqasidan Boboali va bir necha saroy mulozimlari, mansabdorlar yo‘lga tushdilar. Poytaxtning bir ko‘p shuaro va fuzalosi, akobirlari hozir bo‘ldilar (Oybek)

Uyushiq ega a‘zolari biriktiruvchi va ayiruvchi bog‘lovchilar bilan o‘zaro bog‘lanadi. Zidlovchilar uyushiq egalarni biriktirish uchun qo‘llanmaydi, ular ko‘pincha uyushiq kesimlarda qo‘llanadi. Biriktiruvchi bog‘lovchilardan „va“ uyushiq egalarda, shuningdek, uyushiq kesimlarda ham yakka holda qo‘llanadi, takrorlangan holda esa deyarli qo‘llanmaydi. Bu bog‘lovchi ikki a‘zoli uyushiq egalarni hamma ko‘p a‘zoli uyushiq egalarning ko‘pincha oxirgi ikki a‘zosini biriktirib bog‘laydi va uyushiq ega a‘zolarining hammasi to‘la aytilganligini, ularning tugallanganligini ko‘rsatadi. Masalan: Nima uchun bizning yerlarda ham sitrus ekinlari, xurmo, limon, mandarin va apelsinlar o‘stirilmaydi? (Ibrohim Rahim).

Uyushiq egalar juft-juft bo‘lib kelsa, „va“ bog‘lovchisi shu juftlar orasida qo‘llanadi va juft bo‘laklarni biriktirib bog‘laydi. Bir juft bilan ikkinchi juft esa intonatsiya yordami bilan birikadi. M a s a l a n. ' Erk va muhabbat, Vatan va xalq, do‘stlik va sadoqat, jang va mehnat, shodlak va baxt, jasorat va g‘alaba, o‘tmish va kelajak, yoshlik va bahor, tabiat va hayot -- hammasi ham uning ijodida o‘zining ifodasini topa bildi (Uyg‘un). „Ham“ yordamchisi uyushiq egalarda qo‘llanishi jihatdan „va“ yordamchisiga bir qadar o‘xshaydi. Masalan, uyushiq ega ko‘p a‘zoli bo‘lsa, „ham“ uning oxirgi ikki a‘zosi orasida qo‘llanadi, uyushiq egalar juft holda bo‘lsa, shu juftlar orasida keladi. „Bilan“ yordamchisi aslida ko‘makchi bo‘lib, o‘rni bilan (uyushiq bo‘laklarda) bog‘lovchi vazifasida keladi va birgalik ma‘nosini anglatadi. Bu bog‘lovchi uyushiq egalarda qo‘llanadi, lekin uyushiq kesimlarda qo‘llanmaydi. U vazifasi jihatidan „va“, „ham“, „hamda“ bog‘lovchilariga teng bo‘lib, ikki a‘zoli uyushiq egalarni o‘zaro teng bog‘laydi, ammo ko‘p a‘zoli uyushiq egalarning oxirgi ikki bo‘lagini bog‘lashga xizmat qilmaydi hamda shu xususiyati bilan „va“ bog‘lovchisidan farqlanadi. Uyushiq egalar juft-juft bo‘lib kelsa, „bilan“ bog‘lovchisi huddi „va“ bog‘lovchisidek, ana shu juft bo‘laklarni o‘zaro biriktiradi. Masalan:

Zaynab bilan xushchaqchaq Huri, Adol bilan yallachi Nuri, Asal bilan o'yinchi Sora, Surma bilan quvnoq Ruxsora, Sarvi bilan dutorchi Gulnor, Qunduz bilan Suqsur va Anor Birga-birga qaytadi xandon, birga chaqchaq qiladi chandon. (H. O l i m j o n)

Ba'zi hollarda juft egalarning biri „va“, ikkinchisi „bilan“ bog'lovchilari yordamida birikib kelishi ham mumkin. Masalan: Erta sahardan beri ish boshida yurgan Oyqiz va Olimjon, ayniqsa Suvonqul bilan Bekbo'ta ustiga ko'k piyoz sepilgan oshni zo'r ishtaha bilan yedilar (Sh. R a s h i d o v).

Uyushiq egalar „na... na“ bog'lovchisi bilan ham o'zaro birikib keladi. Bu bog'lovchi uyushiq egalarda, shuningdek, boshqa uyushiq bo'laklarda ham faqat takrorlangan holda qo'llanadi va inkor ma'nosini ifoda etadi. „Na... na bog'lovchisi bilan birikkan uyushiq egalarning kesimi ko'pincha bo'lishli shaklda bo'ladi. Uyushiq egalarning hamda kesimda ifodalangan harakatning inkor etilishi, bo'lmasligi kesimning grammatik shaklidan emas, balki bog'lovchidan anglashiladi. „na... na“ bog'lovchisi uyushiq egalarning oldidan keladi, ulardan keyin qo'llanmaydi. Masalan:... ularda na maqsad, na ehtiros, na hayot bor (A s q a d M u x t o r). Ko'ngillarida na dard bor, na ishq (P. Tursun).

Uyushiq egalar biriktiruvchi bog'lovchilar o'rnida kelgan -yu", „-u“ kabi yuklamalar bilan ham o'zaro bog'lanadi. Bunday vaqtda uyushiq egalardan ta'kid va kuchaytirish ma'nolari anglashiladi. M a s a l a n: Menu Bonu bulbuldurmiz, his ori (Navoiy).

Cholu kampir kelishdi kabi.

Uyushiq egalar ayiruvchi bog'lovchilar bilan ham o'zaro bog'lanib keladi. Ayiruvchi bog'lovchilar biri ma'lum belgiga (kesim ifoda etgan belgiga) ega bo'lgan, boshqasi esa shu belgiga ega bo'lmagan yoki kesim ifoda etgan belgiga galma-gal ega bo'ladigan uyushiq egalarni biriktirib bog'laydi. Uyushiq egalarda ayiruvchi bog'lovchilardan „yo“, „yoki“, „yoxud“ yakka yo takror holda qo'llanadi, „dam... dam“, „goh... goh“ kabi bog'lovchilar esa faqat takror holda qo'llanadi. Misollar: Umrzoq tog'a yo Zebi xola Quadrat bilan borishib, Kolyani ko'rib kelishadi (H. Nazir).

E Umrzoq tog'a, yo Zebi xola Quadrat bilan borishib, Kolyani ko'rib kelishadi. Hozir bizda har bir ratsionalizator yoki ixtirochi o'z miyasiga kelgan taklufni ko'taradi (A. M u x t o r).

Dam Ra'no o'qiydi, dam Shuhrat. Bir Ra'no o'qiydi, bir Shuhrat. Yuzlariga goh do'q, goh g'azab, goh yalinchoqlik yoyiladi (O y b e k).

Voqea-hodisani boʻrttirib, kuchaytirib koʻrsatish maqsadida baʼzan uyushiq egalarda qoʻsh bogʻlovchilar ham ishlatiladi. M a s a l a n: Uning kelganini na Sidiqjon payqadi va na Qurbon ota (A. Q a h h o r).

Buning kasbini na odam va na shayton qiladi (H. Hakimzoda).

Uyushiq egalar hozirgi zamon oʻzbek tilida yo aniqlovchilarsiz, yo aniqlovchilar bilan kengaygan holda qoʻllanadi. Aniqlovchilarsiz kelgan uyushiq egalar yigʻiq, aniqlovchilar bilan kelgan uyushiq egalar yoyiq uyushiq egalar deyiladi. M isollar: Qish, bahor, yoz oʻtdi. (P. T u r s u n).

Uning qahri ham, rahmi ham samimiy (O y b e k).

Ustaxona ayvonidagi kultivator, peshlangan ketmonlar yarqirab ketdi (I. R a h i m).

Bir uyushiqlik zanjirini tashkil qilgan egalarning baʼzisi yigʻiq, baʼzisi yoyik holda aralash kelishi ham mumkin. Masalan: Qop-qorongʻi soydan bir chaqirim chamasi yoʻl bosish kerak. Ammo chayla ham, yumshoq pichan ham, momiqday yostiq ham uni oʻziga tortadi (Sh. R a s h i d o v).

Togʻlar, adirlar, uzoq-yaqindagi daraxtlar qurum bosganday qop-qora tus oldi. (A. Q a h h o r).

Uyushiq egalar gapning ikki boʻlagi — aniqlovchi va kesim tomonidan aniqlanadi. Kesim hukm chiqarish yoʻli bilan uyushiq eganing belgisini koʻrsatsa, aniqlovchi maʼlum bir belgi-xususiyatni koʻrsatish yoʻli bilan uyushik eganing turgʻun belgisini koʻrsatadi. Maʼlumki, aniqlovchi qaratqichli aniqlovchi va sifatlovchi deb ikkiga boʻlinadi. Uyushiq egalar ana shu har ikkala aniqlovchi bilan ham kela oladi. Misollar: Ularnang odatlari ham, oʻyinga boʻlgan intilishlari ham bir-biriga aslo oʻxshamas edi (Sh. R a s h i d o v).

...jingalak sochlari va boʻynidagi choʻgʻday galstugi shamolda hilpillamoqda edi (H. N a z i r).

Aniqlovchi uyushiq egalarga nisbatan umumiy va xususiy boʻlishi mumkin. Umumiy aniqlovchi uyushiq ega aʼzolarining hammasida mavjud boʻlgan bir xil belgini koʻrsatadi, yaʼni uyushiqlik zanjirini tashkil qilgan egalarning hammasini birdek aniqlaydi. Xususiy aniqlovchi esa uyushiq ega aʼzolarining hammasini birdek aniqlamaydi, balki ulardan birininggina belgisini koʻrsatadi. Bu belgi uyushiqlik zanjirini tashkil qilgan egalarning boshqalarida mavjud boʻlmaydi.

Odatda, aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Xuddi shuningdek, umumiy aniqlovchi ham uyushiq egalardan oldin keladi. Lekin uyushiq egalardan oldin kelgan har bir aniqlovchi ham

umumiy aniqlovchi bo'la bermaydi. Ba'zan aniqlovchi uyushiq egalardan oldin kelib, faqat birinchi eganinggina belgisini ko'rsatadi; boshqa egalarning belgisini esa ko'rsatmaydi, ularni aniqlamaydi. Bu esa gapning umumiy mazmunidan, o'sha predmetning o'z xususiyatidan anglashilib turadi. Masalan: Dala havosi, qimiz, ko'kalamzor — dardimga naq davo (Oybek). Burchak-burchakda rangdor toshlar, suyaklar, yana allanimalar sochilib yotardi (H. Nazir).

YOYIQ uyushiq egalar umumiy va xususiy aniqlovchilar bilan kelishiga ko'ra tubandagicha bo'ladi:

1. Umumiy qaratqichli aniqlovchisi bo'lgan yoyiq uyushiq egalar: ... mening oltinlarim, marvarid-marjonlarim, atlas-shohilarim yo'q (H. Hakimzoda). Boshqa pechlarning stalevar va podruchniylari qarab turardi (A. Muxtor). Uning muhabbati, andishasi, nafrati, nazokati gup etib yuziga uradi (H. G'ulom).

2. Xususiy qaratqichli aniqlovchisi bo'lgan yoyiq uyushiq egalar: Ko'chalardan odamlarning g'ovur-g'uvuri, avtomashinalarning guvullashi eshitilib turardi (SH. Rashidov). Past devor orqasidan jo'jalarning chiyillashi, tovuqlarnang qurqirasha eshitildi. (I. R a h i m).

3. Umumiy sifatlovchili aniqlovchisi bo'lgan yoyiq uyushiq egalar: Katta kishloqning har joy-har joyida bekor yotgan eski bostirmalar, otxonalar do'konlar buzildi (I. Raxim).

...Vitrinalarga yangi chiqqan ki~ toblar, jurnallar qo'yilgan (A. Muxtor).

Uyushiq egalarning umumiy sifatlovchili aniqlovchilari fikrni ta'sirliroq bayon qilish uchun takrorlangan holda ham qo'llanadi. Masalan:

Qutlug' bo'lsin yangi mehnat, yangi boylik, yangi turmush,ong-bilimning musovati (H.Hakimzoda)

Soraning har bir so'zi,har bir harakati kishilarga tetiklik,mardlik,quvoncht,bag'ishlaydi (H.G'ulom).

4. Xususiy sifatlovchili aniqlovchisi bo'lgan yoyiq uyushiq egalar: Ko'chaning ikki tomonida ko'm-ko'k tol va qaddi raso teraklar tizilgan

(Sh. Rashidov). Ixcham kiyimlari, kiftlariga tushib turgan ikkita yo'g'on soch o'rimi o'ziga kelishgan zdi (H. Nazir).

Bu uyning o`rtasida katta yumaloq stol, ikki deraza o`rtasida sariq charm tortilgan divan bor (A. Muxtor).

5. Umumiy va xususiy sifatlovchili aniqlovchisi bo'lgan yoyiq uyushiq egalar: Qishlog'imizdagi qaddi raso teraklar, xushbichim tollar ko'm-ko'k bo'lib turibdi.

6. Umumiy qaratqichli xususiy sifatlovchili aniqlovchisi bo'lgan yoyiq uyushiq egalar: Daraxtlar orasidan kolxozchilarning bir tipda qurilgan shinam uylari, kichik-kichik bog'chalari ko'rinib turadi (Sh. Rashidov)

Uning arslonday ko'rkam gavdasi, keng peshonasi, chuqur samimiyat ifodasi bilan to'la yirik, xushyor ko'zlari, kir yaktagi ichidan qavarib turgan keng ko'kragi, baquvvat ko'llari... unga juda yoqdi (Oybek).

Shunday qilib, uyushiq egalar aniqlovchisiz va umumiy hamda xususiy aniqlovchilar bilan kengaygan holda, yoyiq holda kela oladi.

Umumiy va xususiy qaratqichli, umumiy sifatlovchili va xususiy qaratqichli aniqlovchisi bo'lgan yoyiq uyushiq egalar uchramaydi.

3- § UYUSHIQ EGALI GAPLARDA UMUMLASHTIRUVCHI BIRLIKLARNING QO'LLANISHI

Ta'kidlash, xulosalash maqsadida uyushiq bo'laklarda, jumladan, uyushiq egalarda umumlashtiruvchi bo'lak qo'llanadi. Umumlashtiruvchi bo'lak sanaluvchilarni — uyushiq egalarni jamlab, umumlashtirib ko'rsatadi va jins tushunchasini ifoda etadi. Sanaluvchilar esa shu jins tarkibiga kirib, uni tashkil qilib, tur tushunchasini ko'rsatadi. Umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq egalardan oldin ham, keyin ham keladi. Umumlashtiruvchi bo'lak qayerda bo'lmasin, u uyushiq egadan keskin pauza bilan ajraladi. Umumlashtiruvchi bo'laklar uyushiq egalarining hammasini yoki ularning ba'zilarini umumlashtirib keladi. M a s a l a n:

1) Baliqlar hayoti, tuzilishi, ko'payishi — hammasi Quadratning kitobida bor (H. N a z i r).

2) Uning ko'z oldida injener bo'lib etishgan stalevar Kravchenko, SHeraliyevlar hammani ijodga, yangiliklarga rag'batlantiruvchi mehribon keksala,; professor Nazarov va obermaster va hatto qaysar Nuriddinov ham uni quvontiradi (A. M u x t o r).

Uyushiq eganing umumlashtiruvchi bo‘laklari, ko‘pincha, ot bilan ifodalanadi. Shu bilan birga, olmosh, son kabi so‘zlar bilan ham ba‘zan ifodalanib kelishi mumkin. Uyushiq egalarda asosan turdosh otlar umumlashtiruvchi bo‘lak vazifasida keladi. Atoqli otlar esa bunday xususiyatga ega emas. Atoqli otlar bir jinsga kiruvchi ko‘p predmetning umumiy nomini ifoda etmaydi, balki yolg‘iz predmet nomlarinigina ifoda etadi. Shuning uchun ham ular umumlashtiruvchi bo‘lak vazifasida kela olmaydi. Umumlashtiruvchi bo‘lak vazifasida kelgan turdosh otlar, ko‘pincha, ko‘plik shaklda keladi. Misollar: Xolmurodning do‘stlari: Ergash, Jo‘ra va Omontoy ham birin-ketin otpuskadan qaytishdi (P. T u r s u n).

Katta qishloqning ertapishar qovunlari — amiri, ko‘kcha, oqurug‘lari qadim zamonlardan beri mashhur (I. R a h i m).

Ot bilan ifodalangan umumlashtiruvchi bo‘laklar „kabi“\ „singari“ o‘xshatish ma‘nosini anglatuvchi so‘zlar bilan ham keladi. Bu so‘zlar umumlashtiruvchi bo‘laklardan oldin qo‘llanadi. Masalan: O‘zbek adabiyotida Muqimiyya qadar Alisher Navoiy, Bobir, Lutfiy, Sakkokiy kabi mashhur shoirlar yetishgan.

Umumlashtiruvchi bo‘laklar ko‘pincha belgilash olmoshlari bilan ifodalanadi. Ba‘zi hollardagina kishilik, bo‘lishsizlik kabi olmoshlar bilan ifodalanib kelishi mumkin. Olmoshlar bilan ifoda qilingan umumlashtiruvchi bo‘laklar jins ma‘nosiga ega bo‘lmasdan, faqat uyushiq bo‘laklarni ta’kidlab ko‘rsatishga xizmat qiladi. Misollar: Sho‘rvaniyag eti, moyi, suvi — bari sizniki bo‘ldi-ku! (Oybek). Mana ular: dehqonlar, koranda-chorakorlar, qarollar, shahar kosiblari, ishchilar, zulm olovida suyaklariga qadar yongan bechoralar va ularning oilalari, otalari (Oybek).

Unga na yo‘lovchi, na samovarchi — hech kim e’tibor qilmadi (Asqad Muxtor).

Yuqorida eslatganimizdek, uyushiq eganing umumlashtiruvchi bo‘laklari son bilan ham ifodalanadi. Bunda umumlashtiruvchi bo‘laklar, asosan, jamlovchi sonlar bilan ifodalanadi, chunonchi: Dehqonboy akam bilan Hafiza opam ikkovlari ketadagan bo‘lishdi! (A. Qahhor).

Anorxon, Ergash, Sodiq — uchovi uch tomonga — traktorchilar, universalchilar yoniga jo‘nadi (I. Rahim).

Uyushiq eganing umumlashtiruvchi bo‘laklari tuzilishi jihatdan birgina so‘zdan yoki so‘zlar birikmasidan iborat bo‘ladi:

1)...devor, tosh, tuproq, yog‘och — hammasi otashdek qizigan (I. Rahim).

2) Qavm-qarindoshlar, yor-jo‘ralar, qo‘ni-qo‘shnilar — butun qashloq uydin-uyga yurib, bir-birini tabriklar edi (A. Qahhor). Hamma narsa — uylar, devorlar, daraxtlar qorong‘ilikka jimgina cho‘kdi (Oybek).

Uyushiq eganing umumlashtiruvchi bo‘laklari yolg‘iz yoki aniqlovchilar bilan kengaygan holda kelishi ham mumkin:

1) Shu qadar zavq, shu qadar fikrlar, shu qadar shod xayollar — hammasi sochilib ketdi. (A. Muxtor). Ko‘chalar, uylar — hamma yoq yam- yashil (H. Nazir).

2) Bundan tashqari, bog‘ning turli joylarida har xil mevali daraxtlar — nok, o‘rik, behi, jiyda va hokazo anchagina (Oybek).

Fikrni yanada kuchliroq, ta’sirliroq bayon qilish maqsadida uyushiq eganing umumlashtiruvchi bo‘laklari oldidan kirish bo‘laklarni keltirish ham mumkin: Bug‘doydan go‘ja osh qaynatsa bo‘ladi. Un qilib atala-umoch, uvra osh, xullas, o‘ttiz ikki xil ovqat pishirilsa bo‘ladi (Oybek).

Uyushiq eganing umumlashtiruvchi bo‘laklari ba’zan takror holda ham keladi. Bunday vaqtda nutqning ta’sirchanligi, ta’kid ma’nosi kuchayadi. Masalan: Shu choq uning xayolidan Anorxonning yoshligi, o‘qigan chog‘lari, birga o‘ynaganlari, tarnov oldidagi uchrashuv, qirdagi sayohat, ertalabki voqea, Anorxonning mashinada indamay ketishi — hamma va hamma narsa kezib o‘tdi (I. Rahim).

Ba’zan bir sodda gapda uyushiq ega umumlashtiruvchi bo‘laklari ikkita bo‘lishi ham mumkin, chunonchi:... so‘zanani to‘rtovimiz — qudam, Hafiza, Saltanat — hammamiz tikdik (A. Qahhor).

Pastda hamma narsa: kim qanday o‘ynayapti, kimning qanday kamchiligi bor — hammasi ochiq ko‘rinib turadi (I. Rahim).

Layli va Shirinlar o‘tmishda huquqsiz bo‘lganliklari uchun ham murodlariga yeta olmaganlar, baxtsiz mazlumalar bo‘lganlar (H. G‘ulom).

Gap bo‘laklari har tilning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra gap ichida ma’lum bir tartibda joylashtiriladi. Masalan, o‘zbek tilida ikki sostavli sodda yoyiq gapning egasi odatdagi muayyan tartib bo‘yicha gap boshida, kesimi gapning oxirida keladi. To‘ldiruvchi va hol gap o‘rtasida, ya’ni egadan so‘ng, kesimdan oldin joylashadi. Aniqlovchilar esa aniqlanmishdan oldin keladi. Gap bo‘laklari uyushib kelganda ham ana shu tartib saqlanadi. Chunonchi, uyushiq egalar gap boshida, uyushiq kesimlar gap oxirida joylashadi; uyushiq aniqlovchilar aniqlanmishlaridan

oldin, uyushiq to'ldiruvchi va hollar uyushiq kesimlardan oldin keladi. Gap bo'laklari, jumladan, uyushiq egalarning ham tartibi o'zgarishi mumkin. Inversiyaga uchragan uyushiq egalar odatda kesimdan so'ng, gap oxirida keladi. Uyushiq egalar, ko'pincha, tantanali nutq va chaqiriqlarda inversiyaga uchraydi. Masalan: Yashasin musobaqa g'oliblari – opalar va singillar.

Uyushiq egalarning ayrimlari inversiyaga uchrashi, ayrimlari uchramasligi mumkin. Ularning inversiyaga uchramagan a'zosi kesimdan oldin keladi, ya'ni gapning kesimi uyushiq ega azolari o'rtasida joylashtiriladi. Masalan: Bir hovlida yolg'iz turish noqulay bo'lmasmikan, degan andishani na Kanizak xayoliga keltirar edi, na Sidiqjon (A. Qahhor).

Senda tajriba ham yo'q, uquv ham (Sh. Rashidov).

It ham erkalanibdi, sichqon ham (O'zbek xalq ertaklari).

Uyushiq ega a'zolarining bunday inversiyaga uchrashi uyushiq eganing to'liqsiz inversiyaga uchrashi deyiladi. Yuqorida aytilganidek, uyushiq ega a'zolarining barchasi o'z o'rnini o'zgartirib, inversiyaga uchrasa, bunday hol uyushiq eganing to'liq inversiyaga uchrashi deyiladi. Shunday qilib, uyushiq egalarda ikki xil inversiya — to'liq va to'liqsiz inversiya yuz beradi. Gapning oddiy bo'laklari kabi, uyushiq ega komponentlari xam gap ichida ma'lum tartibda joylashtiriladi. Lekin bu gap bo'laklari tartibidan ancha farq qiladi.

Uyushiq ega a'zolarining gap ichida o'rinlashtirilishi asosan quyidagicha:

1. Harakat subyektlari har jihatdan bir-biriga teng bo'lsa, ularning biror xususiyatini ajratib ko'rsatish talab qilinmasa, uyushiq egalarning joylashishi erkin bo'ladi: Pastki sinflarda o'qiyotgan Lola bilan Mehri zo'r ishtiyoq bilan birga ergashdi (Sh. Rashidov).
2. Anorxon bilan Tansiq turli kolxozlarda yuzlarcha erlar-ayollar orasida yo'l qurmoq bilan band edilar (Oybek).
2. Harakat subyektlarining ish darajasiga, mansabiga qarab joylashadi: Komiljon, Anorxon, Ernazar aka, Umaralilar, brigadirlar, zveno boshliqlari va barcha kolxozchilar paxtaning taqdiri haqida qayg'urmoqdalar (I. Rahim) Gapda yettita ega bo'lib, birinchisi „Komiljon" — kolxoz raisi, ikkinchisi „Anorxon" — rais o'rinbosari, uchinchisi „Ernazar aka" — tajribali kolxozchi, brigadir, to'rtinchisi „Umarali" — kolxozlar birlashgach, raislikdan bo'shab qolgan kolxozchi — brigadir, beshinchisi „boshqa brigadirlar", oltinchisi „zveno boshliqlari yettinchisi „kolxozchilar"dir.

3. Harakat subyektining oʻrniga qarab joylashtiriladi: Stolning bir tomonida Ivan Nikitich, ikkinchi tomonida Oyqiz, oʻrtada Joʻraboyev nimanidir gaplashib oʻtiradilar (Sh. Rashidov). Bu gapda birinchi ega — Ivan Nikitich (rayon suv xoʻjaligining boshligʻi), ikkinchi ega — Oyqiz (qishloq sovetining raisi), uchinchi ega — Joʻraboyev (rayon partiya komitetining birinchi sekretari) dir. Demak, bu gapdagi uyushiq egalar subyektning mansabi, ish darajasiga qarab emas, balki joylashish tartibiga qarab gap ichida ketma-ket berilgan.

4. Egalar harakatning birin-ketinligiga qarab joylashtiriladi:....Ichkaridan institut direktori, ilmiy xodimlar chiqib kelishdi (I. Rahim). Yoki: Ichkaridan ilmiy xodimlar va institut direktori chiqib keldi. Bu gapda ikkita ega boʻlib, ularning biri — institut direktori, ikkinchisi — ilmiy xodimlardir. Birinchi gapda ichkaridan birinchi boʻlib institut direktori, undan keyin ilmiy xodimlarning chiqib kelishi, ikkinchi gapda xodimlar oldin, ulardan keyin institut direktorining chiqib kelishi tasvirlangan va shunga muvofiq egalar joylashtirilgan.

5. Uyushiq eganing „allakim“, „allanima“, „kimdir“, „nimadir“, „boshqalar“ kabi soʻzlar bilan ifodalangan aʼzolari deyarli hamma vaqt oxirida joylashtiriladi. Ular uyushiq eganing keyingi aʼzolari hisoblanadi. Masalan: Bu yerda Boʻtaboy, Zokir ota, Abdusamad qori va yana kimlardir bir toʻda boʻlib oʻtirishar zdi (A. Qahhor).

Qoʻziboy ham, boshqalar ham Quadratdan yana allanimalarni soʻramoqchi boʻlib, ogʻiz ochgan edilar (H. Nazir).

3- BOB UYUSHIQ KESIMLAR

1- § KESIMLARNING UYUSHISHI

Uyushiq kesimlar grammatik tomondan oʻzaro teng boʻlib, umumiy egaga ergashadilar va ikkinchi darajali boʻlaklarni ergashtiradilar. Uyushib kelgan kesimlar bir umumiy egadan tashqari birdan ortiq (uyushiq) egaga ham ergashadi va, shu bilan birga, uyushiq ikkinchi darajali boʻlaklarni oʻziga ergashtirib ham keladi.

Hozirgi zamon oʻzbek tilida uyushiq kesimlar ifodalanish materiallariga koʻra ikkiga boʻlinadi:

1. Feʼl-uyushiq kesimlar.

2. Ot-uyushiq kesimlar.

Feʼl-uyushiq kesimlar. Uyushiq kesimlarning feʼl bilan ifodalanishi boshqa soʻzlar bilan ifodalanishiga qaraganda ancha unumlidir, chunki feʼlning asosiy sintaktik funksiyasi — kesim

bo'lib kelish. Fe'l bilan ifodalangan uyushiq kesimlarda shaxs-son va zamon ma'nosi shu fe'llarning shaklidan aniqlanadi. Uyushikli zanjirni tashkil qilgan kesimlarning hammasi shaxs-son va zamon tomondan, asosan, bir xil bo'ladi, ya'ni barchasi bir shaxs-son va zamonni ko'rsatadi. Masalan; Gorkiyni ko'rdim, dokladini eshitdim, o'zi bilan suhbatlashdim (G'. G'ulom).

Qizim, nima deyapsan, mening to'g'rimda gapirayotibsanmi? (A. Qahhor). Bolalaringizni birpas suyub erkalating, boshini silang (Asqad Muxtor).

Keltirilgan misollarning birinchisida kesimlar birlik, birinchi shaxs, o'tgan zamon shaklida; uchinchisida esa ko'plik, ikkinchi shaxs, buyruq shaklida kelgan. Uyushiq kesim a'zolarining zamon jihatdan bir xil bo'lishi doimiy hol emas. Ular bir zamonda bo'lgan harakatlarni ifodalash bilan birga, ba'zan turli zamonda bo'lgan harakatlarni ifodalab ham kela oladi. Misollar: Fan bilan qurollangan olimlar yangi hujayralar va hujayrasiz hayot qonunini kashf etdilar, osmon jismlarining haqiqiy sirlarini ochmoqdalar, qurg'oqchilikka barham bermoqdalar, tabiatni o'zgartirmoqdalar (I. Rahim) Bu gapni bir aytdingiz, yana qaytarib gapirmang! (H. Hakimzoda).

Yuqoridagi gaplarning birinchisida to'rtta kesim bo'libg ularning birinchisi o'tgan zamonni, qolgan uchasi hozirgi zamonni; ikkinchi gapda ikkita kesim bo'lib birinchisi o'tgan zamonni, ikkinchisi kelasi zamonni ko'rsatadi. Ba'zan uyushiq kesimlar turli zamon shaklida bir fe'l bilan ham ifodalanib kela oladi. Masalan: Minglab stansiyalar qurdik, quramiz („Xat").

Agar bu kesimlarning har ikkalasi ham bir zamon, masalan, o'tgan zamon shaklida kelsa, ular uyushiq kesim bo'lmay, balki ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolarini anglatuvchi takror kesimlar hisoblanadi. Masalan: Minglab stansiyalar qurdik, qurdik kabi.

Demak, fe'l zamonlari uyushiq kesimlarning hosil bo'lishida bir qadar rol o'ynaydi.

Tilimizda hozirgi va kelasi zamon fe'llariga qaraganda o'tgan zamon fe'lining turlari ko'p. U turli xil shakllarga ega. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent A. X. Sulaymonov o'zining nomzodlik dissertatsiyasida o'tgan zamon fe'lining 21 xil shaklini ko'rsatadi. Har bir shaklning asosiy ma'nolarini va undan tashqari turli ma'no ottenkalariga ega bo'lishini aniqlaydi.¹⁸

Bir uyushiq zanjirni tashkil qilgan kesimlar aniq, birgalik, o'zlik, majhul, orttirma darajadagi fe'llar bilan ifodalanganidek, aniq-birgalik, aniq-o'zlik, aniq-orttirma, birgalik-o'zlik, birgalik-orttirma kabi turli darajadagi fe'llar bilan aralash holda ham ifodalanib keladi.

¹⁸ A. X. Sulaymonov

1. Aniq va birgalik darajadagi fe'llar bilan ifodalangan uyushiq kesimlar: Xo'jayin bo'lgandan keyin kishi o'z xo'jaligining kam-katagi, uning rivoji to'g'risida o'ylaydi, maslahat soladi, maslahat oladi, ...o'rganadi, tortishadi... (A. Qahhor).
2. Aniq va o'zlik darajadagi fe'llar bilan ifodalangan uyushiq kesimlar: Soraxonimning san'atini tomosha qilgan xalqimiz qora o'tmish azobini eslab, o'zi uchun xulosa chiqaradi va baxtli hayoti tufayli behad sevinadi (H. G'ulom).
3. Aniq va orttirma darajadagi fe'llar bilan ifodalangan uyushiq kesimlar: O'zi o'qidi va bolalarini ham o'rta va oliy maktablarda o'qitdi (og'zaki nutqdan).
4. Birgalik va o'zlik darajadagi fe'llar bilan ifodalangan uyushiq kesimlar: Yuvindim va hovliga chiqib, onamga qarashdim.
5. Birgalik va orttirma darajadagi fe'llar bilan ifodalangan uyushiq kesimlar: Sasha bilan rasm chizishdim va devoriy gazetani kecha ko'rsatgan joyingizga qoqtirdim.
6. O'zlik va orttirma darajadagi fe'llar bilan ifodalangan uyushiq kesimlar: Ishdan kelgach, yechindim, yuvindim va ovqat tayyorlattirdim.

Kesimlar majhul va boshqa to'rt darajadagi fe'lning birortasi bilan ifodalangan holda birga uyushib kelmaydi. Bu esa majhul darajadagi fe'lning xususiyatiga bog'liq kesimi majhul darajadagi fe'l bilan ifodalangan gaplarda logik obyekt grammatik ega, logik subyekt grammatik to'ldiruvchi vazifasida keladi. Boshqa darajalarda logik subyekt grammatik ega, logik obyekt grammatik to'ldiruvchi funksiyasini bajaradi. Shunga ko'ra, gapda ikkita kesim bo'lib, biri majhul, ikkinchisi boshqa 4 darajadagi fe'lning birortasi bilan ifodalansa, uyushiq bo'lak hosil bo'lmaydi, balki qo'shma gap hosil bo'ladi. Masalan: Qudrat qop ko'tarib kelib qoldi-yu, so'z bo'lindi (H. Nazir).

Bu gap ikki sodda gapdan tuzilgan qo'shma gapdir. Birinchi sodda gapda „Qudrat" ega bo'lib, u logik subyektga teng bo'lsa, ikkinchi sodda gapda „so'z" ega bo'lib, u logik obyektga tengdir. Logik subyektga teng bo'lgan ega aniq darajadagi fe'l-kesimni („kelib qoldi-yu"), logik obyektga teng bo'lgan ega esa, majhul darajadagi fe'l-kesimni („bo'lindi") ergashtiradi.

Uyushiq kesimlar ravishdoshlar bilan ham ifodalanadi. Bu holda ular ergash gapning kesimi bo'lib keladi. Ravishdoshlar o'zlarining sintaktik vazifalariga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

1. Sodda gapning kesimi (uyushiq kesim a'zosi sifatida) vazifasida keluvchi ravishdoshlar.
2. Hol vazifasini bajaruvchi ravishdoshlar.

3. Qo'shma gapda ergash gapning kesimi vazifasida keluvchi ravishdoshlar.

Birinchi guruhga kiruvchi ravishdoshlar tuslanuvchi fe'l bilan ifodalangan kesimdan anglashilgan harakatga nisbatan ikkinchi darajali ish-harakatni (eganing qo'shimcha ish-harakatini) ko'rsatadi va tuslanuvchi fe'l-kesim bilan birga uyushiq bo'lakni (uyushiq kesimni) tashkil qiladi. Ikkinchi guruhga kiruvchi ravishdoshlar eganing qo'shimcha ish-harakatini ko'rsatmaydi, balki fe'l-kesimdan anglashilgan ish-harakatning qanday holda, qanday ravishda bajarilganligi, umuman, kesimdan anglashilgan harakatning holatini ko'rsatadi va gapda hol vazifasini bajaradi. Uchipchi guruhga kiruvchi ravishdoshlar esa, yuqorida aytganimizdek, qo'shma gapda ergash gapning kesimi vazifasida keladi. Qo'shma gap tarkibida ravishdosh-kesimning ham, fe'l kesimdek, o'ziga maxsus egasi bo'ladi. Har ikkala kesim, ya'ni fe'l-kesim bilan ravishdosh-kesim bir egaga ergashmaydi, ularning har qaysisi o'zlari mansub bo'lgan egaga ergashadi. Masalan: Kelajak uchun rejalar qurilib, umid chechaklari anqib hid sochdi (H. Shams).

Sodda gapning kesimi vazifasida kelgan ravishdoshlar [sodda gapning kesimi vazifasida, ko'pincha--(i)b shaklidagi ravishdoshlar qo'llanadi], ya'ni birinchi guruhga kiradigan ravishdoshlar, yuqorida aytganimizdek, eganing qo'shimcha harakatini ko'rsatadi; fe'l-kesimlar esa eganing asosiy harakatini ko'rsatadi. Shuning uchun gap qurilishida fe'l-kesim asosiy, ravishdosh-kesim ikkinchi darajali kesim hisoblanadi. Professor V.V. Reshetov ham fe'l-kesimni asosiy, ravishdosh-kesimni ikkinchi darajali kesim deb ko'rsatadi.¹⁹

Tartib jihatdan asosiy kesim gap oxirida, ikkinchi darajali kesim undan oldin, gap o'rtasida joylashadi. Uyushiq kesim ko'p a'zoli bo'lsa, ravishdosh-kesim ba'zan fe'l-kesimlar o'rtasida kelishi ham mumkin. Masalan: 1) Brigada boshlig'i bir traktorni Ernazar aka zvenosiga yuborib, ikkinchisini ko'cha bo'yidagi 6 gektarli parchada qoldirdi. (I. Rahim). Turg'unboy aka dam qizarib, dam oqarayotir. (Oydin).

2). Jamila vijdotsiz mingboshiga jismoniy qarshilik ko'rsatadi, zolimni urib, uning soqolini yulib tashlaydi (Hamza).

3) Xo'jayin o'rnidan turib, eshikni qiya ochdi, birovni imlab, yana o'z joyiga o'tirdi (Oybek).

Asosiy kesim bilan ikkinchi darajali kesim grammatik va mazmun tomondan bir-biri bilan birikib, zichlashib ketadi. Shuning uchun ham shaxs-son, zamon kabi tushunchalarni anglatuvchi qo'shimchalar ularning biriga, odatda, oxirgisiga (fe'l-kesimga) qo'shilib keladi va ravishdosh-

¹⁹ V.V. Reshetov

kesim uchun ham umumiy bo'ladi: Kitobxonani titdi, o'qigan kitoblarini qayta varaqladi (A. Muxtor).

Ravishdosh-kesimni tuslanuvchi fe'l-kesim bilan almashtirish ham mumkin. Bu holda ravishdosh-kesim o'rnida kelgan fe'l-kesim bilan keyingi kesim orasidagi mazmun yaqinligi (fikriy yaqinlik), zichlik yo'qoladi, uning o'rniga ta'kid ma'nosi paydo bo'ladi. Chunonchi, Kitobxonani titdi, o'qigan kitoblarini qayta varaqladi kabi. Bu xil gaplarning, ya'ni ravishdosh-kesimi tuslanuvchi fe'l-kesim bilan almashtirilgan gaplarning kesimlarini teng bog'lovchilar yordami bilan bog'lash ham mumkin. Masalan, Komiljon Tatyani, ko'rib, to'xtadi (I. Rahim). Komiljon Tat'yanani ko'rdi va to'xtadi.

Ravishdosh-kesim ham fe'l-kesim bilan teng huquqli bo'lib, xususiy va umumiy ikkinchi darajali bo'laklarni ergashtirib keladi:

U paxta terish kampaniyasi vaqtida paytni qo'ldan bermaslik uchun kech yotib, erta turadi (Gazeta).

U peshonasidan o'pib, boshini siladi (II. Tursun).

Keltirilgan misollarning birinchisida yotib" va „turadi" so'zlari kesim bo'lib, ularning birinchisi ravishdosh bilan, ikkinchisi tuslanuvchi fe'l bilan ifodalangan. Bu ikki bo'lakning har qaysisi gap sostavidagi kpaxta terish kampaniyasi vaqtida" degan payt, „paytni qo'ldan bermaslik uchun" maqsad hollarini ergashtiradi. Shu bilan birga, „yotib" bo'lagi „kech turadi" bo'lagi „erta" degan payt hollarini ham ergashtirib kelgandir. Ikkinchi misolda „o'pib" va „siladi" bo'laklari kesim bo'lib, ularning birinchisi „peshonasidan", ikkinchisi „boshini" degan xususiy ikkinchi darajali bo'laklarni ergashtirib kelgandir. Bu sodda gapning kesimlarini umumiy-ikkinchi darajali bo'laklar bilan ta'minlash ham mumkin. Chunonchi, U yupatish uchun peshonasidan o'pib, boshini siladi. U gapirib-gapirib peshonasidan o'pib, boshini siladi kabi.

Bir uyushqlik zanjirini tashkil qilgan ravishdosh-kesimlarning ba'zisi, xuddi fe'l-kesimlar kabi, ikkinchi darajali bo'lak bilan kengayib, yoyiq holda keladi, ba'zisi esa ikkinchi darajali bo'laklarsiz, yig'iq holda kelishi ham mumkin. Masalan: Habibulla yuvini, ust-boshini yangilab, sandalga o'tirdi. (P. Tursun). Bu misoldagi „yuvini" kesimi ikkinchi darajali bo'laksiz, yig'iq holda, „yangilab" kesimi „ust-boshini" ikkinchi darajali bo'lagi bilan kengaygan holda kelgandir. Ravishdosh-kesim (sodda gapning kesimi) bilan ravishdosh-hol ba'zan aralashtirib yuboriladi. Bu esa, ayniqsa, maktabda ona tili o'qitish ishini qiyinlashtiradi. Ma'lumki, hol fe'l-kesimda ifoda etilgan harakatning belgisini ko'rsatadi va „qanday", qanday qilib", „qanday holda", „qanday ravishda" kabi so'roqlarning biriga javob bo'lib, grammatik

tomondan fe'l-kesimga ergashib keladi, lekin uyushiq kesimning ravishdosh bilan ifodalangan a'zosi kabi umumiy egaga bevosita ergashmaydi: Gulnor ko'zlarini dam ochib, dam yumib, uyquga qarshilik ko'rsatadi (Oybek). Bu misolda „Gulnor" so'zi gapning egasidir, „qarshilik ko'rsatadi" bo'lagi „nima qiladi?" so'rog'iga javob bo'lib, eganing harakatini ko'rsatadi va gapda kesim vazifasini bajaradi; (ko'zlarini) „dam ochib", „dam yumib bo'laklari esa „nima qilib?", „qanday qilib?", qay holda?", „qanday ravishda?" kabi so'roqlarning biriga javob bo'lib, „qarshilik ko'rsatadi" kesimiga ergashadi va undan anglashilgan harakatning qanday holda bajarilganligini bildirib, gapda ravish holi vazifasini bajaradi. Yana bir-ikkita misol keltiraylik: Qiltiriq-mahsum ko'zlarini pilchillatib, bedana qadam bilan yo'rg'aladi. (A. Muxtor). Ular bog'lar, chorbog'larni oralab, katta dala yo'liga chiqdilar (P. Tursun). Keltirilgan bu misollardagi „pilchillatib" va „oralab" bo'laklari ham xuddi yuqorida keltirilgan misollardagi hol singari „qanday?, qanday qilib?" kabi so'roqlarga javob bo'lib, kesimlarda ifoda etilgan harakatning bajarilishidagi holatini ko'rsatadi va gapda hol vazifasini bajaradi. Yuqoridagi gapning ravishdosh bilan ifodalangan bo'laklarini tuslanuvchi fe'l-kesim bilan almashtirish va ular orasida teng bog'lovchilarni qo'llash mumkin emas. Agar shunday qilinsa, gapning so'zlovchi ko'zda tutgan mazmuni yo'qoladi va tuslanuvchi fe'l bilan almashtirilgan bo'lak mustaqil harakatni ko'rsatuvchi fe'l-kesimga aylanadi: Ular bog'lar, chorbog'larni oraladilar va katta dala yo'liga chiqdilar kabi.

Fe'l-kesimlarda ifoda etilgan harakatning ravishdosh-hol tomondan ifoda etilgan holati, ko'pincha, shu kesimdan anglashilgan harakat bilan bir paytda parallel davom etadi. Holat oldin, harakat undan keyin yoki aksincha bo'lmaydi. Masalan: Hojarbibi shabadaday yelib chiqib ketdi. Quدراتillaxo'ja chinakamiga qahqahlab kulib yubordi (A. Muxtor).

Ravishdosh-uyushiq kesim esa eganing fe'l-kesimda ifoda etilgan harakatidan oldin bajarilgan qo'shimcha harakatni ko'rsatadi. Yuqorida aytganimizdek, ravishdosh-uyushiq kesimni tuslanuvchi fe'l-kesim bilan almashtirish mumkin, ravishdosh-holni esa fe'l-kesim bilan almashtirib bo'lmaydi. U kulib gapirdi gapini u kuldi va gapirdi tarzida aytish mumkin emas. Shunday qilib, ravishdosh-uyushiq kesim bilan ravishdosh-hol bir-biridan jiddiy farq qiladi. Ularning asosiy xususiyatlarini (farqlarini) quyida sanab ko'rsatamiz:

1. Ravishdosh-uyushiq kesim eganing qo'shimcha harakatini ko'rsatadi va grammatik tomondan unga tobe bo'ladi, ergashadi.
2. Ravishdosh-uyushiq kesim, odatda, tuslanuvchi fe'l-kesimda ifoda etilgan harakatdan oldin bajarilgan harakatni ko'rsatadi.

3. Ravishdosh-uyushiq kesim gap ichida tartib jihatdan fe'l-kesimdan oldin joylashadi va shaxs-son, zamon kabi tushunchalarni anglatuvchi qo'shimchalarni qabul qilmaydi. Bu qo'shimchalar fe'l-kesimlarga qo'shilib kelib, ravishdosh-kesimlar uchun ham umumiy bo'ladi.

4. Ravishdosh-uyushiq kesimlarni fe'l-kesim bilan almashtirish va ular orasida teng bog'lovchilarni qo'llash mumkin.

5. Ravishdosh-uyushiq kesimlar ham fe'l-kesimlardek, ikkinchi darajali bo'laklarsiz yig'iq holda hamda umumiy va xususiy ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengaygan, yoyiq holda qo'llanishi mumkin.

6. Ravishdosh-kesim qo'shma gap tarkibida maxsus egaga, uyushiq kesim tarkibida esa umumiy egaga ergashadi.

1. Ravishdosh-hol ham eganing harakatini ko'rsatadi, lekin, shunga qaramasdan, u grammatik tomondan egaga emas, balki fe'l-kesimga ergashadi va undan anglashilgan harakatning qanday holda bajarilganligini bildiradi.

2. Ravishdosh-hol ifoda etgan belgi, odatda, fe'l-kesimdan ifoda etilgan harakat bilan bir paytda parallel davom etadi; biri oldin, ikkinchisi undan keyin bajarilmaydi. M a s a l a n:

Coopib

Yugurib

Terlab

Kulib

Xafa bo'lib —keldi kabi.

G'azablanib

Qo'rqib

Quvonib

Shodlanib

Xursand bo'lib

3. Ravishdosh-holni fe'l-kesim bilan almashtirish va ular orasida teng bog'lovchilarni qo'llash mumkin emas, yugurdi va keldi deb bo'lmaydi.

4. Ravishdosh-hol egaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita ergashmaydi, balki bavosita, ya‘ni kesim orqali ergashadi.

Ravishdosh-uyushiq kesim hamda ravishdosh-holning xarakterli xususiyatlari va ular orasidagi farqlar, bizning fikrimizcha, asosan shulardan iborat.

Sifatdoshlar gapda, asosan, aniqllovchi, otlashganlari esa ega, to‘ldiruvchi hamda fe‘l vazifasida kesim bo‘lib keladi. Sifatdoshlar, shu bilan birga, uyushiq kesim funksiyasini ham bajaradi. Uyushiq kesimlar, ko‘pincha, fe‘l vizifasida kelgan „-gan“, -(a)r shaklidagi sifatdoshlar bilan ifodalanadi. Masalan: Ammo meni ayagan, rahm qilgan (Sh. Rashidov).

Gul sug‘orar, hovli supurar (O y b e k).

Kesimlar sifatdosh va fe‘l bilan ifodalangan holda ham uyushib kela oladi. Chunonchi: Yer yuzining eng go‘zal shahri bugun kuchga to‘lgan, ijod bilan, mehnat bilan qaynaydi, xayollarni qanoatlantiradi (A. M u x t o r). Shu bechora ham umid bilan dunyoga kelgan, ha demay katta bo‘ladi, bola-chaqa qiladi (A. Qahhor).

1. Uyushiq kesimlar infinitiv bilan ham ifodalanadi. Infinitiv bilan ifodalangan uyushik kesimlar zamonga nisbatan umumiylik ifoda etadi, konkret bir zamonni ko‘rsatmaydi. Masalan: Bizning ishimiz paxta dalasida ishlamoq, yerni pishitmoq, mo‘l xosil uchun barcha choralarni ko‘rmoqdir (Gazetadan). Ba‘zan infinitiv- uyushiq kesimli gaplardan kelasi zamon ma‘nosi anglashiladi, lekin zamon ma‘nosi infinitivdan emas, balki gapning mazmunidan seziladi. Misol: Ota-ona orzusi bizni uylantirmog‘-u, nevara ko‘rmoq (P. Tursun).

Ot-uyushiq kesimlar. Ot-uyushiq kesimlar eganing kimligi, nimaligi, qanday va qanaqa ekanligi, miqdor va tartibi kabi belgilarni ko‘rsatib keladi; uni biror jihat-dan xarakterlab beradi.

Ot-uyushiq kesimlar kesimlik affikslari bilan yoki ularsiz qo‘llanadi. Ba‘zi hollarda esa ular bog‘lamalar bilan ham qo‘llanib keladi. Kesimlik affikslari va bog‘lamalar uyushiq kesimlarning har bir a‘zosi bilan keladi yoki faqat keyingisi bilan kelib, hammasi uchun umumiy bo‘ladi. Misollar:... harakatlari nozik va silliq (Oybek). Ergash Xolmurodga o‘rtoq va ovunchoq bo‘ldi (P. Tursun). Ergash Xolmurodga o‘rtoq bo‘ldi va ovunchoq bo‘ldi kabi.

Ot-uyushiq kesimlarning bog‘lamalari asosan grammatik ma‘noga ega bo‘lib, kesimning shaxs-son, zamon va maylini ko‘rsatib keladi. Ot-uyushiq kesimlarda bog‘lama rolida ko‘pincha „bo‘l“ fe‘lining turli shakllari, „sanaladi“, „hisoblanadi“ kabi fe‘llar qo‘llanadi. Misollar.— Turmushimiz boy, to‘kis, to‘liq bo‘ldi (Oybek). Kampir hali ziyrak edi, quv edi (Oybek). Paxta talabkor, injiq ekin (Oybek).

Ot-uyushiq kesimlarning ot qismi yetakchi ma'noni ifoda etadi. Ularni kesim sostavidan tushirib qoldirish mumkin emas. Ot-uyushiq kesimlarning yetakchi qismi o'z leksik ma'nosini to'liq saqlagan mustaqil so'zlardan bo'ladi. Ular, asosan, quyidagicha ifodalanadi:

Ot-uyushiq kesimlarning yetakchi qismi bosh kelishik shaklidagi ot yoki ot o'rnida kelgan olmoshlar bilan ifodalanadi. Bu guruh ot-uyushiq kesimlar eganing kimligini, nimaligini, jinsini va boshqa shu kabi belgilarini ko'rsatib keladi. Masalan: Bular mavlono Shahobiddin bilan shoir mavlono Binoiy edilar (Oybek). Bu nima? Mana bu — dur, mana bu — marvarid. Mana bu yongan—gavhar. Qolganlari — har xil toshlar: yoqut, zumrad (Oybek).

Karvonsaroyda ot boqib, xarob bo'lib yurgan menmi yo senmi? („O'zbek xalq ertaklari").

Ba'zan ot-uyushiq kesimli sodda gaplarda uyushiq kesim bilan eganing o'rnini almashtirish mumkin. Bunday vaqtda o'sha gap bo'laklarining grammatik vazifalari o'zgaradi, ya'ni uyushiq kesim ega vazifasida, ega esa uyushiq kesim iazifasida keladi. Masalan: Siz ...ham do'stim, ham og'amsiz (Oybek). Ham do'stim, ham og'am —siz. Do'stim ham, og'am ham—siz. Bunday kesimlar bog'lama bilan kelganda, uyushiq kesimning ot qismi o'z o'rnini o'zgartiradi, bog'lama qismi esa o'zgartirmaydi. U o'z joyida qoladi va o'rin o'zgarishi orqali gapning oxiriga o'tgan bo'lakni kesimlik belgilari bilan ta'minlaydi. Masalan:

Siz ham do'stim, ham og'am bo'lasiz. Ham do'stim, ham og'am siz bo'lasiz kabi. Ba'zan (ko'pincha, ega jamlovchi, umumlashtiruvchi so'z bilan ifodalanganda) uyushiq kesim bilan eganing o'rnini almashtirish mumkin emas.

Bunday vaqtlarda eganing o'rnini o'zgartirib, uni kesimdan keyin qo'ysak, gapga xos bo'lgan hukm va tugallangan intonatsiya yo'qoladi. Gap tugallanmaganga o'xshab, uning davomi kutiladi. Gapning egasi esa sanaluvchilarni umumlashtirib keluvchi bo'lakka aylanadi. Bog'lamalar yordamida ham u bo'lakni kesim shakliga keltirib bo'lmaydi, bog'lamaning o'zi kesimga aylanib qoladi. Misol:Hammasi mug'ombirlik, erkalik, noz! (O y b e k).

Mug'ombirlik, erkalik, noz — hammasi... Mug'ombirlik, erkalik, noz — hammasi bo'ldi.

2. Ot-uyushiq kesimlarning yetakchi qismi harakat nomi bilan ifodalanadi. Masalan: Bizning vazifamiz bu maqolani butun xalqqa, birinchi navbatda kolxozchilarning qulog'iga yetkazish, undan keyin, kech-roq bo'lsa ham, dalaga odam chiqarish edi (A. Qahhor). Bu — ajoyib intilish, ijodga ishtiyoq, yangiliklar qidirish!(A. Muxtor).

3. Ot-uyushiq kesimlarning yetakchi qismi sifat bilan ifodalanadi. Masalan: Zumrad ko‘p chiroyli, odobli, aqlli qiz ekan ("O‘zbek xalq ertaklari"). Boy—pishiq, mug‘ombir odam (O y b e k).

4. Ot-uyushiq kesimlarning yetakchi qismi son bilan ifodalanadi.

Misollar: ...plan yo yetmish, yo sakson (Oybek) Ayt-chi, otingning oyog‘i to‘rttamidi yo uchtamidi? („O‘zbek xalq ertaklari"). Siz yo birinchi, yo ikkinchi edingiz.

Ot-uyushiq kesimlar chiqish kelishigidagi so‘zlarning „iborat" so‘zi bilan birga kelishi orqali tuziladi. Bunday vaqtda „iborat" so‘zidan keyin „bo‘ldi", „edi" singari bog‘lamalarni keltirish ham mumkin. Masalan: Bizning asosiy vazifamiz paxtani tekis undirab olish va yaxshi parvarish qilishdan iborat edi (gazetadan).

Bunday kesimlar „kerak", „lozim" kabi so‘zlar bilan ham kengayishi mumkin: Bizning asosiy vazifamiz paxtani tekis undirib olish va yaxshi parearish qilishdan iborat bo‘lishi kerak edi. Ot-uyushiq kesimlar ham zamonni ko‘rsatadi. Ot-uyushiq kesimlar hozirgi zamonni ifoda etganida, asosan, kesimlik affikslari bilan yo ularsiz keladi. Masalan: Sen o‘z ishingga juda loyiqsan,.. kuchlisan, dadilsan (A. Muxtor). ...so‘zi qisqa, to‘g‘ri va tirik (Oybek). Sen olov, bo‘lakcha yigitsan (Oybek).

Ot-uyushiq kesimlar „ekan", „emish" fe‘l bog‘lamalari bilan kelib ham hozirgi zamonni ko‘rsatadi. Masalan: O‘g‘li befarosat, dag‘al va xunuk ekan („O‘zbek xalq ertaklari").

Ot-uyushiq kesimlar „edi" bog‘lamasi bilan kelganda o‘tgan zamonni; „bo‘ladi", „hisoblanadi", „deyiladi" kabi bog‘lamalar bilan kelganda, har uch zamonni ham ifoda etadi. Masalan: Mag‘rur va shod edi (Oybek).

Rahmatilla Obidiy internatga muallim va murabbiy bo‘ldi (A. Qahhor). Daraxtlarning mevasi mo‘l va yirik bo‘lyapti. Gap bitta, ikkita bo‘lmaydi.

Ot-uyushik kesimlar o‘zlariga tegishli aniqllovchilar bilan kengayib ham keladi. Bunday vaqtda aniqllovchilar ot-uyushiq kesimlarning bog‘lama qismiga emas, balki ot qismiga ergashadi va uni aniqlaydi. Masalan: ...harakatlari bolaligidagidek chaqqon, tez (A. Muxtor). Bahor havosi ana shu to‘lin oydek tiniq, beg‘ubor (I. Rahim)

Ot-uyushiq kesimlarning inkor shakli asosan „emas" so‘zi va „-ma" qo‘shimchasi orqali yasaladi. „-ma qo‘shimchasi bog‘lamaga qo‘shilib keladi. Masalan:

Har qanday so‘z behuda, ma’nosiz bo‘la bermaydi kabi.

Kesimlar bir turkumdagi soʻzlar bilan ifodalangan holda uyushib kelishi bilan birga, turli turkumdagi soʻzlar bilan, masalan, ot va feʼl bilan ifodalangan holda ham uyushib kela oladilar. Bunday uyushiq kesimlar ham teng bogʻlovchilar va biriktiruvchi pauza yordamida oʻzaro teng bogʻlanadilar hamda maʼlum bir zamonni koʻrsatadilar: Bu odam kim va nima maqsadda keldi? (A. Qahhor). Yozuv- chizuv ishiga qarashib yurgan edi, borib-borib oʻz-oʻzidan sekretar boʻlib qoldi (A. Qaxhor).

Toʻpaniso opam bilan birga boʻlsam, ish bilar edim, gap bilar edim, tushungan xotin boʻlar edim (A. Qahhor).

Men Xoʻjakent qishlogʻidan keldim, jiyaningizning oʻgʻli boʻlaman (Oybek).

2- § UYUSHIQ KESIMLARNING OʻZARO BOGʻLANISHI

Uyushiq egalardek, uyushiq kesimlar ham biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi yoki teng bogʻlovchilar yordami bilan oʻzaro birikadilar. Uyushiq kesimlar koʻp aʼzoli boʻlsa, baʼzan oxirgi ikki aʼzosi biriktiruvchi bogʻlovchi bilan, oldingi aʼzolari esa biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi yordami bilan bogʻlanadi. Oxirgi ikki boʻlak orasida kelgan bogʻlovchi sanashning tugallanganligini koʻrsatadi. Shuning uchun bunday uyushiq kesimlarni yumuq (yopiq) uyushiq kesimlar deyish mumkin. Bogʻlovchi yordami bilan birikkan ikki aʼzoli uyushiq kesimlar ham yumuq uyushiq kesimlar hisoblanadi. Misollar: Ular yangidan-yangi narsalarni orzu qiladilar, yangi shirin tilaklar bilan yashaydilar va ishlaydilar (Sh. Rashidov).

Oytoʻti darrov tushundi va onasini yupatish uchun soʻzini boshqa yoqqa burdi (Oydin).

Uyushiq kesimlar biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi yordami bilan oʻzaro aloqaga kirganda, oxirgi boʻlak orasida ham bogʻlovchilarning qoʻllanmasligi mumkin, yaʼni uyushiq kesimlarning hamma aʼzolari bir-biri bilan faqat biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi orqali bogʻlanishi mumkin. Baʼzan esa uyushiq kesim aʼzolari takrorlangan biriktiruvchi yoki ayiruvchi bogʻlovchilar yordami bilan oʻzaro grammatik bogʻlanadi. Bunday vaqtda sanashni davom ettirish imkoniyati boʻladi. Shunga koʻra, bu xil uyushiq kesimlarni yumuq boʻlmagan (ochiq) uyushiq kesim deyish mumkin. Masalan: Umidsazlikka tushma, ...kuching, quvvating bor, vaqtida ish qil, kornoma koʻrsat (Ayniy).

Ovqat puli yo tegar, yo tegmas edi (Ayniy).

Biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi yordami bilan oʻzaro birikkan uyushiq kesimlar ham, yuqorida aytganimizdek, yumuq boʻlmagan uyushiq kesimlar guruhini tashkil

kiladi. Bunday uyushiq kesimlar o'tgan zamon aniq fe'li bilan ifodalanganlarida payt jihatdan ketma-ketlik va ba'zan bir paytlilikni anglatadi:

1) Dasturxon yozdik, undan-bundan gaplashib o'tirdik (Oybek).

2) Xolmurod bu kunlarda o'z holiga achinmadi, yig'lamadi (P. Tursun).

Har kun bozor aylanib, ertadan kechgacha tentiradi, shaharning turli tomonlariga uzoq-yaqinga yuk tashidi (Oybek).

„Borar edim" shaklidagi o'tgan zamon fe'li bilan ifodalangan yumuq bo'lmagan uyushiq kesimlar bir-biri bilan almashinib, galma-gal bo'lib turgan ish-harakatlarni yoki uzoq vaqt ichida birin-ketin yuz bergan ish-harakatlarni, yo vaqtma-vaqt takrorlanib turgan ish-harakatlarni ifodalaydi. Misollar: U Azizning nafasi tezlashganda yoki juda sekinlashib qolganda, o'rnidan turib ketar, ichkarida vrach „tashvishlanmang" deganday qo'l ko'targanda, horg'in kipriklarini pirillatib yana joyiga o'tirar edi (A. Muxtor).

Faqat rais Mirhaydar o'z kolxozchilaridan xabar olgani kelganda, dastlab ularga kirar, bemalol o'tirib, har qiz, har ayolning hol-ahvolini surishtirar, arizalarini tinglar, yaxshi so'zi, otalarcha nasihati bilan har birining ko'nglini ko'tarar edi (O y b e k).

Shu bilan birga, „borar edim" shaklidagi o'tgan zamon fe'li bilan ifodalangan uyushiq kesimlar bir paytga to'g'ri kelgan ish-harakatlarni ham ifodalaydi. Masa-lan:...chigitni hammadan oldin ekishga tirishar, shoshar edi (Oybek).

Vasiliy Ivanovich stalevar cho'michini qo'liga birinchi olgan kishidek shoshilar, hatto bir oz qaltirar edi (A. M u x t o r).

Uyushiq kesim a'zolari bir-biri bilan bo'lgan turlicha munosabatlarga ko'ra, yo biriktiruvchi, yo zidlovchi, yo ayiruvchi bog'lovchilar yordami bilan o'zaro birikadi. Biriktiruvchi bog'lovchilar uyushiq kesimlarni o'zaro biriktirib bog'laydi. Birgina biriktiruvchi bog'lovchi yordamida bog'langan kesimlardan anglashilgan harakatlar bir-biriga juda yaqin bo'ladi. Ma sa l a n: ...yor-jo'ralari qidirishar va chaqirishar edi (A. Muxtor).

...uni to'xtatdi va ayolga buyurdi (P. Tursun).

Biriktiruvchi bog'lovchilar yordami bilan bog'langan uyushiq kesimlar bir paytda bo'lgan harakatlarni ifodalaydi. Harakatlar ma'lum bir paytda parallel davom etadi. Uyushiq kesim a'zolari harakatlarning bajarilish payti jihatidan bir-biriga teng bo'ladi. Masalan: Fozil shoir... qirqdan ortiq doston to'qidi va ijod qildi („F. Yo'ldosh").

Biriktiruvchi bog'lovchilar yordami bilan o'zaro birikkan uyushiq kesimlar ketma-ket, oldinma-keyin yuz bergan harakatlarni ham ifodalaydi. Bunday vaqtda uyushiq kesimlardan anglashilgan harakatlarning biri yuz berib turgannida, ikkinchisi amalga oshmaydi, bir vaqtda ikki harakatparallel davom etmaydi. Bir harakat tugagach, ikkinchi harakat uning ketidan davom etadi. Shunday qilib, harakatlar o'zlarining bajarilish paytlari jihatdan teng bo'lmaydi. Masalan: ...tuya yungidan to'qilgan shol dasturxonga o'ralgan nonlarni keltirib, mehmonlar oldiga qo'ydilar va sardorga qarab ta'zim qilib, chiqib ketdilar (Ayniy).

Nafas olib-olmay qorong'i zalga chiqdi va ish kabinetining eshigiga yaqinlashdi (A. M u x t o r).

Uyushiq kesim a'zolari ba'zan biriktiruvchi bog'lovchilar o'rnida keluvchi „---da", „-u" kabi yuklamalar yordami bilan ham o'zaro birikib keladi. Bunday uyushiq kesimlardan anglashilgan harakatlar payt jihatdan bir-biriga juda yaqin turadi. Bir harakat tugashi bilanoq, ikkinchisi boshlanib ketadi. Ikkinchi harakat ko'pincha tasodifiy, kutilmagan bo'ladi. Misollar: Oyqiz birdaniga devorning o'ng tomoniga burildi-da, irg'ib otdan tushdi (Sh. Rashidov).

...Papirosini oxirigacha tutatib-tutatib chekdi-yu, suhbatini davom ettirdi (Sh. Rashidov).

Tosh yuraksizlar! Vaqtiki kelib, biz asirlarning oldiga uchib kelsanglar, bizning ahvolimizni ko'rsangizlar-u, yana meva yegani uchib ketsanglar („Hind ertaklari").

Zidlovchi bog'lovchilar biri bo'lgan, biri bo'lmagan ish-harakatlarni ifodalovchi kesimlarni yoki bir harakat natijasida hosil bo'luvchi harakatning yuzaga chiqmaganligini anglatuvchi kesimlarni o'zaro teng bog'laydi. Bu bog'lovchilar yordami bilan birikkan uyushiq kesimlardan anglashilgan harakatlarning biri bajariladi, boshqasi esa bajarilmaydi. Shuning uchun ham kesimlardan biri bo'lishli, ikkinchisi bo'lishsiz fe'l bilan ifodalanadi. Zidlovchi bog'lovchilar yordami bilan birikkan uyushiq kesimlarning yo oldingi, yo keyingi a'zosi bo'lishsiz shaklda bo'ladi. Misollar: Mana, nima qilsalaring o'zimni qila beringlar, ammo bola-chaqaga tegmanglar (P. Tursun).

Bir piyola quydi, lekin ichmadi (Oybek). U nima qilishni bilmas, lekin nimadir qilishni istar edi (II. Tursun).

Ba'zan zidlovchi bog'lovchilar yordami bilan birikkan uyushiq kesimlarning barcha a'zosi yo bo'lishli, yo bo'lishsiz fel bilan ifodalanadi. Bunday uyushiq kesimlarda zidlik ma'nosi kesimni ifodalovchi so'zning leksik ma'nosidan anglashiladi: Zokir ota g'o'za shoxlasa, ko'sak ko'payadi degan fikrga qo'shildi, lekin hosil ortadi degan fikrni rad qildi (A. Qahhor).

Bir harakatning bajarilmasligi uchun ikkinchi harakat to'siq bo'lmasa, zidlovchi bog'lovchi yordami bilan birikkan uyushiq kesimlarning barcha a'zolari bo'lishsiz fe'l bilan ifodalanadi. Masalan: Darsdan progul qilmaydi, vazifalarni bajarmasdan kelmaydi, lekin boshka o'quvchilardek, o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga o'zi ko'l ko'taribq javob ham bermaydi kabi.

Zidlovchilardan „balki“ bog'lovchisi biri real bo'lib, ikkinchisi real bo'lmagan harakatni ifodalovchi uyushiq kesimlarni o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Shuning uchun bu bog'lovchi yordami bilan o'zaro aloqaga kirgan uyushiq kesimlarning biri bo'lishli, ikkinchisi bo'lishsiz shaklda keladi: Hayotning so'nmasligi umrning uzunligida emas, balki insoniyatning baxti-saodati uchun mangu o'lmas, ulug' va jonli ishlar qilishdadar..

Zidlovchilardan „lekin“, „ammo“, „biroq“ bog'lovchilari esa, asosan, biri ikkinchisini cheklovchi uyushiq kesimlarni o'zaro bog'laydi. Misollar: ...Ishqlarida kuyib yurmoqdamiz, lekin hech ilojini topa olmayotirmiz (Hamza).

Denisov — dehqonlar orasida ko'p yurgan sobiq irrigator - sodda, odamshavanda, lekin talabchan, xhaqiqatchi edi (Oybek).

Yuklamalar biriktiruvchi bog'lovchilar vazifasida kelgani kabi, zidlovchi bog'lovchilar vazifasida ham keladi. Masalan: ...boshqa uy topilmasmikin deb so'ragani og'iz ochdi-yu, so'ramadi (A. Qahhor).

Ba'zan yuklama bilan birga zidlovchi bog'lovchi ham qo'llanadi. Bunday vaqtda yuklama bog'lovchi vazifasini bajarmaydi, balki o'z funksiyasini — yuklama vazifasini bajaradi: ...boshqa uy topilmasmikin deb so'ragani og'iz ochdi-yu, lekin so'ramadi.

Ayiruvchi bog'lovchilar uyushiq -kesim a'zolarini o'zaro teng bog'lab, ular ifoda etgan harakatlardan birining bo'lishi, ikkinchisining bo'lmasligini yoki harakatlarning galma-gal davom etib turishini ko'rsatadi. Ayiruvchilardan „yo“, „yoki“ bog'lovchilari uyushiq kesimlarda yakka holda ham, takror holda ham keladi, „dam“, „goh“, „ba'zan“, „bir“ bog'lovchilari esa asosan takrorlangan holda qo'llanadi. Birgina ayiruvchi bilan bog'langan uyushiq kesimlar yumuq uyushiq kesimlar guruhini tashkil etadi, bunday vaqtda bir kesim ikkinchisini istisno qiladi. Masalan: Madkarimga to'g'ri bo'lmay pisib yotadi yo orqa ketiga qaramay qochadi (F. Yo'ldosh).

...xattotlikda mashq qilar yo musiqada kuylar yaratishga urinar edi (Oybek).

Takrorlanib keluvchi ayiruvchilar bilan bog'langan uyushiq kesimlar yumuq bo'lmagan uyushiq kesimlar guruhini tashkil qiladi va bunday guruhdagi kesimlar galma-gal bo'lgan yoki

bir-birini istisno qiladigan ish-harakatlarni ifodalaydi. Misollar: Otam bechora dam nafasi ichiga tushib mingirlaydi, xalifani insofga, murosaga chaqirgandek bo'ladi, dam o'chakishib qattiqroq gapiradi (P. Tursun). Yo'lchi goh bunga shubhalanadi, goh ishonadi (Oybek).

Mana shu loy ba'zan toyiltiradi, ba'zan yiqitadi (A. Qahhor).

Salmoq bilan aytilgan mehnat qo'shig'i goho ko'tarilar, goho tevarak-atrofni bosib ketar edi (Siddiqbekovdan).

Uyushiq kesim a'zolari, yuqorida aytilgandek, yo teng bog'lovchilar, yoki biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi bilan o'zaro birikadi. Ba'zan esa bu ikki hol bir uyushiq zanjirni tashkil qilgan kesimlar orasida yuz beradi: uyushiq kesimning ba'zi a'zolari teng bog'lovchilar yordami bilan biriksa, ba'zilar biriktiruvchi pauza va sanash intonatsiyasi bilan o'zaro bog'lanadi. Uyushiq kesimlar ba'zi hollarda turli bog'lovchilar yordami bilan ham birikib keladi. Shunday qilib, fe'l-uyushiq kesimlarning murakkab qo'shilmalari hosil bo'ladi. Misollar: 1) G'azallar tez tarqalar, og'izdan og'izga o'tar, shaharlardan-shaharlarga ko'char va xalq ichiga singib ketardi („Muqimiy“).

Samovarchini uyg'otib, ertaga majlis bo'lishini aytdi va choyxonani „gulday" qilib qo'yishni buyurdi, so'ngra otni qo'ygani otxonaga bordi (A. Qahhor).

2) Meni o'ldiring yo tiriklay go'rga ko'ming, lekin bu nomussizning qo'liga topshira ko'rmang! (Ayniy). Kiyimi qo'pol, lekin yangi va puxta edi (Oybek).

Fe'l-uyushiq kesimlarning murakkab qo'shilmalari teng bog'lovchi vazifasida kelgan yuklamalar hamda teng bog'lovchining o'zi bilan yoki faqat teng bog'lovchi vazifasida kelgan yuklamalar yordami bilan ham birikib keladi. Masalan: 1) Manzura so'nggi so'zlarini g'ijinib aytdi va kursini o'rnidan ko'tarib taraqlatib yana o'rniga qo'ydi-da, jadal chiqib ketdi (A. Muxtor).

Master ostonada orqasiga qayrilib Manzuraga qaradi-da, uzr so'raganday jilmaydi va „xayr" deb chiqib ketdi. (A. Muxtor).

2) Bola ingradi-yu, yig'lamadi, hayron bo'lib otasining og'ziga, burniga, iyagiga, yana og'ziga qaradi-da, shirin-sho'rtak barmog'ini uning og'ziga tiqdi (A. Qahhor).

3-§ UYUSHIQ KESIMLI GAPLARDA UMUMLASHTIRUBCHI BIRLIKLAR

Uyushiq egalarda umumlashtiruvchi bo‘lak qo‘llansa, uyushiq kesimlarda umumlashtiruvchi kesim qo‘llanadi. Umumlashtiruvchi kesim ham uyushiq eganing umumlashtiruvchi bo‘laklari singari sanaluvchilarni (uyushiq kesimlarni) umumlashtirib ko‘rsatadi. Umumlashtiruvchi bo‘lak ifodalanish materiallari jihatdan uyushiq egalar bilan hamma vaqt teng bo‘lishi shart emas. Uyushiq kesim bilan umumlashtiruvchi kesim esa ifodalanish materiallari jihatdan asosan teng bo‘ladi. Masalan: Ba’zi vaqtda sal qo‘rqitib ham qo‘yaman: kesak otaman, bo‘riga o‘xshab uzoqdan uvullayman (O y b e k)

Filhaqiqat, nodir yigitsiz: ham shoir, ham sharobxo‘r (Oybek).

Umumlashtiruvchi kesim umumlashtiruvchi bo‘lakka nisbatan kam uchraydi.

Fe‘l-uyushiq kesimlar ikkinchi darajali bo‘laklar bilan yo ularsiz qo‘llanadi. Ikkinchi darajali bo‘laklarsiz kelgan uyushiq kesimlar yig‘iq, ikkinchi darajali bo‘laklar bilan kelgan uyushiq kesimlar yoyiq uyushiq kesimlar deyiladi. Misollar: 1)...nasihat qiladi, yupatadi (Oybek).

Chol mamnun bo‘ldi, shodlandi (Sh. Rashidov).

2)Gulsun kelgan yerida pisib o‘tirdi va diqqat bilan quloq sola boshladi (Ayniy).

Bir uyushiq zanjirini tashkil qilgan kesimlarning ba’zisi yig‘iq, ba’zisi yoyiq holda kelishi ham mumkin. Ma s a l a n: Kampir g‘azablanibdi, o‘qlov bilan urib itning oyog‘ini sindiribdi („O‘zbek xalq ertaklari").

Ikkinchi darajali bo‘laklarni uyushiq kesimlarga nisbatan umumiy va xususiy deb ikkiga bo‘lish mumkin. Umumiy ikkinchi darajali bo‘laklar uyushiq zanjirini tashkil qilgan kesimlarning hammasiga oid bo‘ladi, xususiy ikkinchi darajali bo‘laklar esa uyushiq zanjirni tashkil qilgan kesimlarning har biri yoki muayyan bittasiga tegishli bo‘ladi. Bir kesimga ergashib, uning belgisini ko‘rsatib kelgan ikkinchi darajali bo‘lak ikkinchi kesimga ergashmaydi, uning belgisini ko‘rsatmaydi. Yoyiq uyushiq kesimlar umumiy va xususiy ikkinchi darajali bo‘laklar bilan kelishiga ko‘ra tubandagicha bo‘ladi:

Umumiy to‘ldiruvchiga ega bo‘lgan yoyiq uyushiq kesimlar: ...sen bilan ovunaman, ko‘ngil ochaman („O‘zbek xalk ertaklari").

Bu xabarnomani o‘qidi, ko‘rdi (F. Yo‘ldosh).

Xususiy to‘ldiruvchiga ega bo‘lgan yoyiq uyushiq kesimlar: Murabbiya ...uning hovuchidagi suvni to‘kib tashladi va ...qaynamagan suvdagi qurtlar haqida gapirdi (Oydin).

...u Danilovning soʻzlarini esladi va xayolining kalavasini topganday boʻldi (Asqad Muxtor).

3. Umumiy va xususiy toʻldiroʻvchiga ega boʻlgan yoyiq uyushiq kesimlar: U qoʻllari bilan koʻzlarini uqaladi, yuzlarini siladi (Sh. Rashidov).

4. Umumiy holga ega boʻlgan yoyiq uyushiq kesimlar: Laʼlixon yana oʻzini tuta olmadi, ...yigʻladi (Oydin).

5. Xususiy holga ega boʻlgan yoyiq uyushiq kesimlar: Hozir koʻz yoshi qiladi-yu, soʻngra birinchi boʻlib raport beradi (Sh. Rashidov). Bolang 3-4 kun qiynaladi, keyin oʻrganib ketadi (A. Qahhor).

6. Umumiy toʻldiruvchi va xususiy holga ega boʻlgan yoyiq uyushiq kesimlar: Gultuvak qoʻyilgan chorpoya ustidan charm qoʻlqopni olib gʻijimladi, yana tekisladi, choʻzdi va tagʻin joyiga qoʻydi (A. Muxtor).

7. Umumiy hol, xususiy toʻldiruvchiga ega boʻlgan yoyiq uyushiq kesimlar: Endi bu etik tor kelib, oyogʻini qismoqda, toʻpigʻini va birmoqlarini gʻajimoqda (P. Tursun)

Uyushik kesim aʼzolari ham gap ichida, uyushiq ega aʼzolaridek, maʼlum tartibda joylashadi. Bu tartib uyushiq kesimlar anglatgan belgiga nisbatan subyektning munosabatidan, feʼlning mazmunidan kelib chiqadi. Uyushiq kesim aʼzolarining gap ichida joylashishi tubandagicha:

1. Uyushiq kesimlar harakat yo holatning bajarilish miqdoriga koʻra gap ichida oʻrinlashtiriladi. Qaysi harakat koʻp boʻlsa, oʻsha harakatni ifodalovchi kesim, koʻpincha, birinchi oʻrinda, yaʼni oldinda keladi. M a s a l a n: Navoiy yetim-esirlar, faqirlar uchun oylab osh-non berdi, kiyim-kechak ulashdi (O y b e k).

Har kuni ayamni urishadilar, ikki marta oʻlasi qilib urdilar (A. Qahhor). Birinchi misoldagi „berdi" va „ulashdi" boʻlaklari kesim boʻlib, keyingisi miqdor tomondan ancha koʻp boʻlgan harakatni, avvalgisiga birinchisiga qaraganda miqdor jihatdan ancha kam boʻlgan harakatni koʻrsatadi. Payt jihatdan esa harakatlarning har ikkalasi ham bir vaqtda galma-gal davom etgan. Bu „oylab" degan payt holidan va gapning mazmunidan anglashiladi.

Uyushiq kesimlar harakat yo holatning bajarilishi paytiga koʻra oʻrinlashtiriladi. Qaysi harakat oldin bajarilsa, oʻsha harakatni ifodalovchi kesim birinchi oʻrinda, qolganlari esa undan keyin tartib bilan joylashadi. M a s a l a n: U kela solib Qurbon otani dast koʻtardi, ikki aylantirib yerga qoʻydi, hol-ahvol soʻradi, yana quchoqladi (A. Qahhor).

...tom ustiga chiqdi, undan beda g'aramlari ustiga o'rmaladi, uzoqlarga ko'z tikdi (P. T u r s u n).

3 Uyushiq kesimlar harakatning bajarilish sababiga ko'ra ham o'rinlashtiriladi. Bu holda sabab bo'luvchi harakatni bildiruvchi kesim ko'pincha oldin, sabab natijasida hosil bo'lgan harakatni ko'rsatuvchi kesim esa keyin joylashtiriladi. Misollar: Chol darrov gapga tushundi va boshini qimirlatib qizning so'zini ma'qulladi(Sh. R a s h i d o v).

Odamshavanda, gap, so'zi ma'noli bu kambag'al xasta yigitni Yo'lchi yaxshi ko'rar, ahvoliga ko'nglidan qayg'urar edi (O y b e k)

...tirishqoq Fozil o'qishga imkoniyat topmadi, savodsiz qoldi („F.Yo'ldosh'')

Uyushiq kesimlar predmet belgisining qimmat, ahamiyati kabilarga qarab gap ichida o'rinlashtiriladi, ya'ni so'zlovchi yoki yozuvchi predmetning qaysi belgisiga ko'p ahamiyat bersa, o'sha belgini ko'rsatuvchi kesimni birinchi o'ringa joylashtiradi. Masalan: Kiyimi top-toza, sodda va suluv (O y b e k).

Havo salqin, toza (O y b e k). Yangi shahar ko'chalari quruq va toza (O y b e k).

5. Uyushiq kesim ko'p a'zoli bo'lsa, ba'zan a'zolaridan biri boshqalarini umumlashtirib, xulosalab keladi. Ana shu xulosalovchi kesim yo boshida, yo oxirida keladi, lekin o'rtada kelmaydi. M a s a l a n: Turli moddalarni qizitar, eritar, qo'shar, ayirar — o'z ilmi-hunarining chuqur tilsimlarida taajjublanarlik sabr, matonat va g'ayrat bilan ishlar edi (O y b e k).

Men qarab turmadim: poda boqdim, o'roqchlik qildim, otboqar bo'ldim (O y b e k).

She'riyatda uyushiq bosh bo'lak a'zolarining gap ichida joylashishi fakultativdir: unda uyushik bosh bo'lak a'zolarining gap ichida yuqorida ko'rsatilganidek o'rinlashtirilishi ba'zan hisobga olinadi, ba'zan esa hisobga olinmaydi. Vazn va qofiya talablariga muvofiq shoir uyushiq bosh bo'lak a'zolarini istagancha o'rinlashtiradi. M a s a l a n: Ulug' Chin qo'zg'oldi, ozodlik oldi, Ko'rsatdi azamat xalq erkin kuchin.(G'. G' u l o m)

Bu yerda ilm olish, sog'ayish, kitob, Dam olish, muzika xuddi oftob.(G'. G'ulom)

Gap bo'laklarining she'riyatda o'rinlashtirilishi maxsus tekshirishni talab qiladi.

Uyushgan va uyushmagan kesimlar uyushgan va uyushmagan egalar bilan son va shaxsda moslashadi. Bu moslik tubandagichadir:

Uyushgan egalar kishi nomlari bilan ifodalangan bo'lsa, kesim birlik shaklda ham, ko'plik shaklda ham kela oladi. M a s a l a n: Verandadan uzoqlarga qarab, kulib turgan Manzura, Solijon va Sattorov oldindagi mashinani tanib, qo'l ko'tardilar (A. M u x t o r).

Kolxoz raisi va zveno boshlig'i keldi (gazetadan).

Uyushiq egalar kishi nomlaridan boshqa jonli va jonsiz prsdmet otlari bilan ifodalangan bo'lsa, kesim ko'pincha birlik shaklda keladi; juda kam hollardagina ko'plik shaklda uchrashi mumkin:...chug'urchuqlar, maynalar gala-gala bo'lib g'o'zalar ichiga yopirilardi (H. N a z i r).

Tarbiyachi va o'qituvchi ayollarning ochiq chehrasi va tetik ovozi Xolmurodni ruhlantirdi (P. T u r s u n).

Yozda sizlarni ko'pgina qiziqarli ishlar, o'yin-kulgilar kutib turibdi (H. Nazir). ..cho'lning har yog'idan olovlar, chiroqlar imlar edilar (O y b e k).

Uyushiq egalar turli shaxsni ko'rsatuvchi so'zlar bilan ifodalansa, kesim son va shaxsda egalar bilan emas, balki umumlashtiruvchi bo'lak bilan moslashadi. Umumlashtiruvchi bo'lakning tushib qolishi, yashirinib kelishi mumkin. Bunday vaqtda ham kesim egalar bilan mazmunan moslashadi.

M a s a l a n:

Sen va men ikkimiz ishladik.

Men va sen

Men va sen

Sen va men ishladik.

Karim va men

Men va Karim ikkalamiz keldik.

Karim va men

Men va Karim keldik.

Uyushiq kesimlar uyushiq egalar bilan shaxsda moslashadi, sonda esa ba'zan moslashadi va ba'zan esa moslashmaydi: Dilshod va Anzirat ham daladan chiqdilar va Anorxon orqasidan ketdilar. Dilshod va Anzirat ham daladan chiqishdi va Anorxon orqasidan ketishdi. Dilshod ba Anzirat ham daladan chiqdi va Anorxon orqasidan ketdi kabi.

4- BOB

1- § UYUSHIQ BO'LAKLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Uyushiq bo'laklar badiiy asarlarda uning ta'sirchanligini ta'minlovchi uslubiy vosita sifatida ham keng qo'llanadi. Ular badiiy tasvirda peyzaj detallari, harakatning o'sish sur'atini ifodalash uchun qo'llaniladi. Masalan :

Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvillaydi, tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi.
(A.Qahhor)

"Chiyillamoq, g'uvillamoq, vishillamoq, uf tortmoq" fe'llari uyushgan kesim vazifasini bajarib, nutqning dinamikligi haqida tasavvur beryapti.

Yoki :

“O'rtoq Boqijon Baqoyevning ta'bi ochildi — sigir, uning qulog'idagi ko'm—ko'k kana, g'o'qillab tumshug'i bilan ariq yoqalarini buzib yurgan cho'chqa ko'z oldidan ketdi" gapidagi uyushgan bo'laklar sanoqni ifodalash bilan birga kitobxon ko'z oldida peyzaj detallarini namoyish qilish uchun ham qo'llangan.

Har bir yozuvchi badiiy asar talab etgan darajada o'ziga ma'qul bo'lgan grammatik shakllar va sintaktik konstruksiyalarni qo'llaydiki, bular keyinchalik yozuvchi uslubini ko'rsatuvchi vositalardan biriga aylanadi. Uyushiq bo'laklar ham shulardan biri sifatida jonli badiiy tasvir, obrazning ichki dunyosi, uning emotsional holati, his- tuyg'usi ifodasi uchun xizmat qiladi.

Badiiy nutqdagi rap bo'laklarining uyushgan holda kelishi ko'p hollarda uslubiy bo'yoqdorlik bilan bog'liq bo'ladi. Uyushiq bo'laklar predmet yoki shaxslarni sanab ko'rsatish maqsadida ko'p qo'llanadi :

Bu chodirlarda oilalar. meditsina muassasalari, miliiiya, radio, yasli va bog'chalar, mahkamalar, ayrim korxonalarning tsexlari o'z hayotini, ishini boshlab yubordi.

Biron predmet yoki subyektning xil-xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar ham uyushiq bo'laklar vositasida ifodalanadi :

— Bordiyu, mashinani to'xtatadigan, shofyorni javobgarlikka tortadigan militsionerning o'zini qasddan urib o'tsa—chi?

Muhayyo bor joyda olam ko'zimga chiroyli, obod ko'rinib qoldi.

Bundan tashqari, uyushiq bo'laklar predmet yoki voqea-hodisalarning makon va zamon nuqtai nazaridan o'zaro munosabatlarini ham ko'rsatadi.

Yozuvchi asar yaratar ekan, o'z maqsadini ifodalash uchun o'rinli konstruksiyalardan foydalanishga intiladi. Shunday konstruksiyalardan biri bo'lgan uyushiq bo'laklar hayotda mavjud bo'lgan predmetlar orasidagi xilma -xil munosabatlarni aks ettirishga xizmat qiladi. Uyushiq bo'laklar yordamida, yuqorida ta'kidlanganidek, badiiy polotnoda ma'lum detallar o'z aksini topadi, harakat dinamikasi tasvirlanadi, kitobxon ko'z o'ngida tabiat manzarasi o'zining bor bo'yog'i bilan jonlanadi.

Qalandarov yo'l bo'yidagi tiniq yashil daraxtlar, barra o'tlardan ko'zi quvonib, kishining vujudini yayratadigan may havosidan mast bo'lib, hirgoyi qilib ketayotgan edi.

Misolda muallifning "daraxtlar, o'tlar" uyushiq bo'laklari yordamida peyzaj tasvirini o'quvchi ko'z oldida jonlantirmoqchi bo'lgani yaqqol sezilib turibdi.

Taniqli so'z san'atkori, mashhur proza ustasi Abdulla Qahhor asarlari o'zining grammatik qurilishi, xususan, sintaktik xususiyatlari bilan ham farqlanib turadi. Tildagi sintaktik vositalardan o'rinli foydalanish yozuvchining har bir sahifasida, aytish mumkinki, har bir gapida yaqqol ko'rinadi. O'zining qisqa hikoyalarida, qissa, romanlarida A.Qahhor ekspressivlikni ifodalash niyatida uyushiq bo'laklarga ham juda ko'p murojaat qilgan. Asarning ta'sirchanligini ta'minlash maqsadida ikki, uch va undan ortiq komponentli uyushiq bo'laklarni mahorat bilan ishlatgan.²⁰

Qalandarov uni ko'rib iljayd-iyu, o'rnidan qimirlamadi, uzun oyoqlarini qattiqroq salanglatdi.

Mehmonxonada novcha, yo'g'on, qoshari o'siq, mosh—guruch soqoli ko'kragiga tushgan bir chol sandalda kattakon po'stinni yelkasiga tashlab o'tirgan edi.

²⁰ A.Qahhor

Birinchi gapda muallif "Sinchalak" qissasining bosh qahramoni Qalandarovning xarakteriga mos ayrim qirralarni yoritmoqchi. Bu maqsad uchun fe'l bilan ifodalangan kesimlarning uyushib kelishi ma'lum hissa bo'lib qo'shilgan.

Ikkinchi gapda esa uyushgan aniqlovchilar yordamida qahramonning tashqi ko'rinishi chizilgan.

Uyushiq bo'laklar, yuqorida aytilganidek, bir necha komponentli bo'lishi mumkin. Bunday hollarda uyushiq bo'laklarning keyingilari oldingisi anglatgan ma'nolarga izoh berish, to'ldirish, birgalikda tugal ma'noni ifodalashga xizmat qiladi.

Saida boshini ko'tardi, qomatini rostladi.

Eshon sinchalog'i bilan Qalandarovning bilagiga sekin urib konyakni oldi-da, bitta ko'tardi va raisni kuldirish uchun zakuska qilmadi.

Badiiy asarda ko'p komponentli uyushiq bo'laklarning qo'llanishidagi o'ziga xoslik shuki, ular personajning emotsional holatini epik planda yoritishga xizmat qiladi.

Masalan :

Muborakxonim bu gapni eshitib fig'oni chiqdi, yuragiga vahm tushdi-yu, idorasiga borib javob oldi, kuni bo'yi Muhayyoni qidirdi: fakultetiga bordi, hamma qarindoi marining uyiga birma—bir bosh tiqdi; Muhayyoning dugonalariga uchradi, uzun xodachaning uchiga changak bog'lab, mahalla hovuzini ham qidirtirdi; tez yordam kasalxonasiga bordi, militsiyaga arz qildi.

Shu o'rinda qozoq olimi B.Shalabayevning fikrini eslash juda o'rinli.²¹ Olim yozadi : "Uyushiq bo'laklar ham takrordir, lekin ular leksik takror emas, balki sintaktik (struktur) takrordir. Uning sintaktik parallelizmdan farqi shuki, unda bir xil ran bo'lagi takrorlanadi" .

Abdulla Qahhor asarlarida takrorlanib qo'llanuvchi so'zlardan va o'zaro sinonim holatdagi so'zlardan iborat bo'lgan uyushiq bo'laklar ham uchraydi. Bunday holatlarda ma'noviy gradatsiya yuzaga keladiki, bu hodisa ham asarning ta'sirchanligiga katta hissa qo'shadi :

Qalandarov birdan tutaqdi, shofyorni og'iz ochgani qo'ymay shovqin soldi.

Qalandarov gaz berdi—da, mashinani qanoti bilan uni urib, yiqitib o'tdi.

Ikkala misolda ham uyushgan kesimlar yordamida ifodalilik birin-ketin kuchaytirib yuborilgan va ma'noviy gradatsiya yuzaga kelgan.

²¹ B.Shalabayev

Fikrning aniq, ta'sirchan bo'lishini ta'minlashda sintaktik sinonimiyaning imkoniyatlaridan keng foydalaniladi. Sintaktik sinonimiya konnotativ, bir xil ma'noli sintaktik birlik sifatida badiiy asarlarda ta'sirchanlikni ifodalashda keng qo'llanadi. U uyushiq bo'laklar doirasida ham kuzatiladi. Uyushiq bo'laklarning qo'llanishi ifodaning kuchaytirilishiga olib keladi.

U \Hamidulla\ choynakni yerga urib, samovarni tepib yubordi, peshonasiga mushtladi, boshini so'rining poyasiga urib qonatdi.

Misolda uyushgan kesimlar sintaktik sinonimiyaning hosil qilib, holatning ta'sirli ifodasi uchun bir vosita bo'lib xizmat qilgan.

Antonimlar, odatda, ikki so'z orasidagi qarama-qarshi ma'no munosabatini ifodalaydi. Ularning nutqdagi ahamiyati ham beqiyosdir. Antonimlar predmetlar, ularning belgilari, harakat yoki holatlar orasidagi o'zaro farqlarning ifodalanishida ma'lum imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, antonimlar tilning kuchli uslubiy vositalaridan biri sifatida keng qo'llanadi. Bu, ayniqsa, antonim so'zlardan tashkil topgan uyushiq bo'laklarning ishlatilishida yaqqol ko'rinadi. Bunday uyushiq bo'laklar yordamida kontrast xarakterlar, obrazlar chiziladi; personajlarning emotsiyasi, psixologik holatlari ifoda etiladi.

Muhayyo bir suyundi, bir qayg'uga botdi.

Misoldagi antonim so'zlardan iborat uyushgan kesimlar yordamida asar qahramoni — Muhayyoning Muattarning hikoyasidan so'nggi ruhiy holati aks etgan.

Yoki : Muattar ... Marg'ubaning qilmish—qidirmishlarini goh kulib, goh yig'lab gapirib berdi misolida ham huddi shu holat ko'zga tashlanadi.

Aniqlovchilar, ayniqsa sifatlovchilar, predmetning turli belgilarini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Sifatlovchilarning uyushib kelishi esa ma'lum uslubiy vazifa ham bajaradi. Uyushgan sifatlovchilar badiiy asar qahramonining tashqi ko'rinishini tasvirlashda, predmet yoki voqea-hodisalarning xarakterli belgilarini ko'rsatishda qo'llanadi. Uyushgan sifatlovchilar sifatlanmishni xarakterlab, shu orqali matnga emotsionallik, ta'sirchanlik baxsh etadi.

Uyushgan aniqlovchilar yozuvchilar tomonidan asar qahramoni portretini chizishda metafora va epitet sifatida keng qo'llanadi. Bu esa nozik his-tuyg'u va fikrlar ifodalashda uyushiq aniqlovchilarning keng imkoniyatlarini ko'rsatadi. So'z san'atkorlari tomonidan tasvirlanayotgan kartinaning ta'sirchanligi va harakat-holatning ifodaliligini ta'minlash maqsadida uyushgan sifatlovchilarning qo'llanishi ko'p uchraydiki, bu ham uslubiy vosita sifatida ifodaning emotsionalligi uchun xizmat qiladi.

Abdulla Qahhor uyushgan aniqlovchilar yordamida satirik portret yaratishda yirik soʻz ustalaridan biri sanaladi. Yozuvchi mahoratining oʻziga xos belgilaridan biri shuki, muallif uyushgan sifatlovchilardan satira va yumor vositasi sifatida keng foydalanadi. Bu bilan asar qahramonining tashqi koʻrinishigina emas, balki uning ichki dunyosi, qalbi ham ochiladi.

Zuhra qoqvosh, taʼbi nozik, dimogʻdor siz boʻlib, maktabdoshlariga qoʻshilmas edi.

Misolda uyushgan sifatlovchilar Zuhraning ichki dunyosini ochib berishga xizmat qilgan. Kitobxon koʻz oldida qahramonning salbiy xarakteristikasi jonlanadi. Shunday qilib, mohir soʻz sanʼatkori tomonidan qoʻllangan uyushgan sifatlovchilar asar qahramonlari xarakteristikasi uchun, tabiat manzaralari tasviri uchun, harakat-holatlarning badiiy ifodasi uchun xizmat qilgan.

Badiiy asarning qimmatli uslubiy faktor sifatida uning ahamiyatini oshiruvchi uyushgan aniqlovchilardan foydalanishda muallifning mahoratiga bogʻliqdir. Badiiy prozada uyushgan aniqlovchilardan foydalanish keng tarqalgan holatlardan hisoblanadi. Uyushgan aniqlovchilar oʻzaro bogʻlovchilarsiz, faqat intonatsiya yordamida bogʻlanishi mumkin. Son jihatidan esa ular ikki, uch yoki undan ortiq boʻlishi kuzatiladi.

Badiiy asarlarda uyushgan toʻldiruvchilar ham keng qoʻllanadi. Vositasiz yoki vositali toʻldiruvchilarning uyushishi kuzatiladi. Uyushgan toʻldiruvchilar ikki, uch yoki undan ortiq qismdan tashkil topib, oʻzaro bogʻlovchilar yordamida yoki bogʻlovchilarsiz bogʻlanadi. Uyushgan toʻldiruvchilar yordamida bayonda ritmlilik yuzaga keladi.

Misollarga diqqat qilaylik :

U (ellikboshi) ogʻilga kirib teshikni, xoʻkiz bogʻlangan ustunni diqqat bilan koʻzdan kechirdi.

Lekin bu gaplar safsata yoki qiziqchilikdangina iborat emas, uning butun oblastni qadamlab kevganini, koʻp kolxozlarni, ulardagi odamlarni yaxshi bilganini, koʻp raislarni juda-juda oʻrganganini koʻrsatar edi.

Birinchi misolda uyushgan toʻldiruvchilarni sanash orqali, birinchidan, matnda maʼlum darajada ritmlilik yuzaga kelyapti; ikkinchidan, narsalarning nomlarini atash vositasida joy va holat tasviri kitobxon koʻz oldida yorqinroq jonlanadi.

Ikkinchi misolda esa uyushgan toʻldiruvchilar guruhlangan. Bundan tashqari, uyushgan toʻldiruvchilar portret xarakteristikasi (Qalandarov portreti) uchun maʼlum darajada xizmat qilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, uyushgan to'ldiruvchilarning har biri grammatik ko'rsatkichlarga ega bo'lishi yoki grammatik ko'rsatkich ularning oxirigisiga qo'shilib, har biriga tegishli bo'lishi mumkin.

Qalandarov yo'l bo'yidagi tiniq yashil daraxtlar, barra o'tlardan ko'zi quvonib ... ketayotgan edi.

Bu yer yutgur qanday balo ekan! ... Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong'i bo'lsam—chi!

Badiiy asarlarda yozuvchilar qahramonlarning tashqi ko'rinishi, yurish —turishi, xarakteriga xos sifatлари; voqealar o'rni, payti, holatini tasvirlashda uyushgan hollarga murojaat etadilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, A.Qahhor o'z qahramonlari portretini chizishda, ularning sifatlarini ko'rsatishda uyushgan hollarni mahorat bilan ishlatgan.

Misollarga e'tiborni qarataylik :

Shundan keyin Saida Qalandarovning ba'zi bir qilmishlarini shikoyat tarzida emas, ma'lumot tarzida goh afsuslanib, goh kuyib va goh kulib gapirib berdi.

Qaysi fabrika, qaysi zavod yoki shaxta qish yoki yozda to'xtab qoladi? — dedi Saida.

U goh o'ngga, goh so'lga juda chiroyli shox tashlab, iyak siltab Saidaga tomon kelar edi.

Misollardan ko'rinib turibdiki, uyushgan hollar yozuvchi mahoratining nozik qirralarini ekspressiv-emotsional holatda ko'rsatuvchi vosita sifatida qo'llagan.

Shu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlash joizki, A.Qahhor asar qahramonlarining tashqi qiyofalari ifodasida, tabiat hodisalari tasvirida so'zni juda o'rinli qo'llaydi. Bu esa yozuvchining o'ta mahoratidan, so'zga boy va uni o'z o'rnida qo'llay olishidan dalolat beradi, shu sababli uning yozganlari o'qimishli, tabiiy, mahorati o'ziga xos uslubda namoyon bo'ladi.

A.Qahhor qo'llagan uyushgan hollar ichida -b (-ib) affiksli ravishdosh bilan ifodalangani nisbatan ko'p uchraydi. Holning bunday ko'rinishidan foydalanish tezlik bilan bajarilgan voqea — hodisalarni tasvirlashda juda qo'l keladi :

Ellik uch yildan beri bir dasturxondan tuz totgan, bir ko'rpani bosgan, birga kulgan, birga yig'lagan; ellik uch yildan beri mushukday bir-biriga suyanib, bir-birini yalab, og'ritmay tishlab, yiqitib, yiqilib berib, piypalashib o'ynagan; ellik uch yildan beri mehr deb atalmish ulkan tuyg'u rishtasini pilla qurtiday bir maromda asta-sekin chuvis, bir-birining qalbini o'rab-chulg'ab kelgan...

Shunday qilib, A.Qahhor asarlarida qoʻllagan uyushgan hollar ham asarning taʼsir kuchini oshirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida diqqatga sazovordir.

Uyushgan egalarning uslubiy xususiyatlari haqida. A.Qahhor asarlarida qoʻllagan uyushgan egalar oʻzaro bogʻlovchilar yordamida yoki bogʻlovchilarsiz ishlatiladi. Uyushgan egalar tasvirlanayotgan obyektning xarakterli belgilarini sanab koʻrsatish uchun ham qoʻllanadi. Uyushgan egalarning oʻz aniqllovchilari bilan kelishi ham uslubiy jihatdan ahamiyatli. Uyushgan egalarga aloqador aniqllovchilar rap qurilishini kengaytiribgina qolmasdan, oʻzi bogʻlangan eganing maʼnosini toʻldirib, izohlab keladi. A.Qahhor asarlarida ham uyushgan egalarning huddi shunday tipi — aniqllovchilisi koʻp uchraydi. Bunday egalar yordamida kitobxonning diqqati koʻproq jalb etiladi, bu bilan asarning badiiy qimmatini yanada oshadi. Masalan :

Bu chodirlarda oilalar, meditsina muassasalari militsiya, radio, yasli va bogʻchalar, mahkamalar, ayrim korxonalarning tsexlari oʻz hayotini, ishini boshlab yubordi.

Bu misoldagi uyushgan egalar yordamida predmetlar sanogʻi koʻrsatilgan, zilziladan keyingi Toshkent manzarasi chizilgan. Bular oʻz navbatida matnning badiiy qimmatini yanada oshirgan. Bu holatni quyidagi gaplarda ham koʻramiz :

Chumchuqlarning chugʻurlashi, deraza ostida oqayotgan arihchaning shovillashi eshitildi.

Nahot shu gʻazab. bu zaharli gaplar faqat nafsoniyat oqibati boʻlsa?

Til adabiyotning asosiy va yagona vositasi boʻlganidan, yozuvchilar oʻz asarlarida til vositalaridan imkoniyat darajasida kengroq foydalanishga intiladilar. Bunday vositalar qatoriga uyushgan boʻlaklarning kiritilishi yuqorida taʼkidlandi. Uyushgan kesimlarning qoʻllanishida ham uslubiy planda oʻziga xoslik bor.

Kelin yoʻlakda primusga choy qoʻydi, kirib non kesdi, dasturxon yozdi.

Misoldagi uyushgan kesimlar hodisa-harakatlarning dinamikligini ifodalash uchun xizmat qilgan. Bundan tashqari, uyushgan kesimlar orqali subyekt tomonidan bajarilgan bir necha harakatlarga eʼtibor qaratilgan. Matnni oʻqish jarayonida, tabiiyki, uyushgan kesimlar orasida maxsus intonatsiya sanoq ifodalovchi vosita sifatida yuzaga keladi.

Saida uch—toʻrt sahifa toʻldirib, daftarni yostiq ostiga tiqdi va chiroqni oʻchirdi, hayal oʻtmay yana turdi, yana yozdi....

Bu misolda ham uyushgan kesimlarning fikr bayonida harakatlarning dinamikligi ortgani koʻrinib turibdi.

Uyushgan bo‘laklarning uslubiy planda o‘ziga xos xususiyatlarining yuzaga chiqishida ular orasida qo‘llangan morfologik formantlar yoki yordamchi so‘zlarning ham muhim ahamiyati bor. Uyushgan bo‘laklar orasida qo‘llanuvchi bunday formalar ularning har biridan so‘ng yoki oxirgisiga qo‘shilishi mumkin. Bu ham nutqning uslubiy o‘ziga xosligiga bog‘liqdir.

Rayon rahbarlari har sabab va bahona bilan kolxozga tez-tez borishar, boshqa kolxozlardan yulib bo‘lsa ham unga moddiy va ma‘naviy yordam berishar, rayonga markazdan kelgan mas‘ul xodimlarni ham, o‘zlarining mehmonlarini ham “Bo‘ston” mehmonxonasiga, bog‘iga olib borishar, rayonga qanday muxbir, fotograf, yozuvchi kelsa, o‘sha yerga yuborishar edi.

"Sinchalak" qissasidan olingan bu parchadan rayon rahbarlariga xarakteristika berishga xizmat qiluvchi uyushgan bo‘laklarning qo‘llanishini kuzataylik.

Mazkur gapda uyushgan bo‘laklarning quyidagi guruhlari bor :

- 1.Har sabab va har bahona bilan
- 2.Moddiy va ma‘naviy yordam
- 3.Rayondan kelgan mas‘ul xodimlarni ham, o‘zlarining mehmonlarini ham
4. “Bo‘ston” ning mehmonxonasiga, bog‘iga
- 5.Qanday muxbir, fotograf, yozuvchi
- 6.Tez —tez borishar, yordam berishar, ... olib borishar, ... yuborishar edi.

Birinchi guruh ("har sabab va har bahona bilan") qismlari o‘zaro "va" bog‘lovchisi yordamida bog‘langan, ular sanash ohangi bilan talaffuz etiladi. "Bilan" ko‘makchisi, garchi keyingisiga qo‘shilgan bo‘lsa ham, ikkalasiga tegishli hisoblanadi.

Keyingi ("moddiy va ma‘naviy yordam") guruhdagi uyushgan sifatlovchilarning ekspressivlik uchun xizmat qilishi ma‘lum (Bu haqda yuqorida so‘zlandi). Takrorlanib qo‘llangan "ham" ko‘makchisi navbatdagi guruh (rayondan kelgan mas‘ul xodimlarni ham, o‘zlarining mehmonlarini ham) dagi uyushgan bo‘laklar orqali ta‘kidlash ma‘nosini ifodalashga xizmat qilyapti. Huddi shu holat keyingi ("Bo‘ston"ning mehmonxonasiga, bog‘iga) guruhga ham taalluqli.

"Qanday muxbir, fotograf, yozuvchi" guruhida uyushgan bo‘laklardan oldin qo‘llangan "qanday" aniqllovchisi ularning har biriga taalluqli bo‘lib, matnga qisqalik va ekspressivlik baxsh etgan.

Oxirgi guruhdagi sostavli kesimlarning oxiriga qo'shilgan "edi" to'liqsiz fe'li ham uyushgan kesimlarning har biriga tegishli. Bu ham qisqalik va ta'sirchanlikni ta'minlovchi vosita sifatida qo'llangan.

Nutqda uyushgan bo'laklar orasida qo'llangan bog'lovchilarning xarakteriga ko'ra quyidagi munosabatlar farqlanadi :

1. Biriktiruv munosabati.
2. Zidlovchi munosabat.
3. Ayiruvchi munosabat

Biriktiruvchi munosabat. Uyushgan bo'laklar orasidagi biriktiruvchi munosabatni biriktiruvchi bog'lovchilar (va, ham, hamda) va bog'lovchi vazifasidagi "bilan" ko'makchisi, -u(-yu), -da yuklamalari yuzaga keltiradi. Bunday holatda uyushiq bo'laklar sanash ohangi bilan aytiladi.

Eshon shiyponning ustunida osig'liq turgan sadafkorli dutorni uch barmog'i bilan ko'tarib oldi, torini tishining kiri bilan xo'p artib sozladi va mashq boshladi.

Misoldagi uyushgan bo'laklarning oxirgilari orasida qo'llangan "va" bog'lovchisi sanoqning tugayotganidan dalolat beryapti. Boshqa hollarda esa bu tugallanganlik muallifning maqsadi bilan bog'liq holda ko'rinadi :

Kifoyatxon ko'k ro'molini tomog'ining tagidan qayta bog'lab, yosh qizday uyala—uyala zinadan chiqib keldi va qilpillagannamo bir harakat bilan poygakka o'tirdi. Saida xolasining zimdan kuzatib turganini ko'rib qoldi-yu, kulib yubordi. Qalandarov mashinani oldinga, orqaga yurgizdi maydonni bir aylandi, ko'prikdan o'tib, katta yo'lga chiqqanda, shofyorni chaqirib yoniga o'tqazdi—da, rayonga tomon yo'l oldi.

Uyushgan bo'laklar orasidagi biriktiruvchi munosabat biriktiruvchi bog'lovchilarsiz, sanash intonatsiyasi orqali ham ifodalanishi mumkin :

Men bularning hammasiga yangicha sandiq, yangicha po'pisa, yangicha musht, yangicha pichoq deb qarayman.

Saida arzon bo'lsa ham yaxshi tikilgan ko'ylagining orqa etagini g'ijim qilmaslikka tirishib, ehtiyot bilan kursiga o'tirdi, yo'l-yo'l baxmal jiletkasining biqin cho'ntagidan yarmi chiqib turgan kichkinagina bloknotini olib stolga qo'ydi, ingichka qalamning ketini iyagiga tirab, Nosirovga savol nazari bilan qaradi. Biz olib borgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, uyushgan bo'laklar orasidagi biriktiruvchi munosabatni ifodalovchi vositalardan "va" bog'lovchisi

A.Qahhor asarlarida nisbatan ko'p uchraydi. Bu esa muallifning ushbu vositadan turli maqsadlarda ustalik bilan foydalanganini ko'rsatadi.

Zidlovchi munosabat. Uyushgan bo'laklar orasidagi bunday munosabat ular o'rtasidagi qarama — qarshilikni ifodalaydi. Uyushgan bo'laklardan biri bo'lishsiz shaklda bo'lib, ikkinchisiga zid ma'noga ega bo'ladi.

Go'ristonga pichoq emas, qumg'on olib borasan.

Zidlovchi munosabat uyushgan bo'laklar orasida qo'llangan zidlovchi bog'lovchilar (ammo, lekin, biroq), uning vazifasini bajaruvchi -u (-yu) yuklamasi yordamida ham ifodalanadi. Bunday holatda uyushgan bo'laklardan biri ma'noni tasdiqlasa, ikkinchisi inkor qilib, kontrast holat yuzaga keladi :

... boshqa uy topilmasmikan deb so'ragani og'iz ochdi-yu, so'ramadi.

Maston kalta, ammo yo'g'on ikki o'rim sochini boshiga o'radi.

Zidlovchi munosabat uyushgan bo'laklar orasida "emas" to'liqsiz fe'lini keltirish bilan ham ifodalanadi. Bunday holatda yo inkor, yo qarama-qarshi qo'yish ma'nosi sezilib turadi.

"Illatni chimchilab olib tashlash kerak emas, tagi bilan qo'porish kerak" gapida inkor ma'nosi ifodilangan bo'lsa ; "Senga emas, o'zingga zarur" gapida qarama — qarshi qo'yish ma'nosi o'z ifodasini topgan.

Ayruvchi munosabat. Uyushgan bo'laklar orasidagi ayiruvchi munosabatda uyushgan bo'laklardan biri orqali yuzaga chiqadigan ish —harakat, holat, voqea-hodisa yoki predmet ifoda etiladi. Ba'zan esa birin-ketin yuzaga chiqish ma'nosi ham ifodalanishi mumkin. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bunday munosabat takrorlanib qo'llanuvchi yo, yoki, yohud, yoinki, goh, goho, dam, bir, ba'zan kabi ayiruv bog'lovchilari vositasida ko'rinadi.

Shamol goh och bo'riday uvillar, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vig'illar edi.

Lola hayron : goh dadasiga qaraydi, goh onasiga.

Birinchi misolda uyushgan bo'laklar orqali harakatlarni bir-biridan ayirib ko'rsatish, ta'kid ifoda etilayotgan bo'lsa, ikkinchi misoldagi harakat obyektini galma-gal ifodalash sezilib turibdi. Bu holatlar, tabiiyki, takrorlanib qo'llanuvchi ayiruv bog'lovchilari orqali yuzaga chiqmoqda. Ba'zan ayiruv bog'lovchilari yakka holda ham qo'llanishi mumkin. Bunday holda ayirib

ko'rsatish, ta'kidlash ma'nosi kuchsizlashadi. Matnning ta'sirchanligiga ozgina bo'lsa-da putur yetadi, bu holat ko'proq oddiy so'zlashuvda kuzatiladi :

— Ko'chada ketayotgan avtomobil bironi bossa yoki turtibmi, yiqitibmi, ozor bersa, nima bo'ladi?

Abdulla Qahhor uslubiga xos belgilardan yana biri uyushgan bo'laklar orasidagi ayiruvchi munosabatni ifodalashda ayiruv bog'lovchi vazifasini bajaruvchi -mi yuklamasining qo'llanishidir, -mi yuklamasining takror qo'llanishi voqea-hodisa, predmet, ish-harakatning biri bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi : Saida telefonga javob beradimi, kelgan—ketgan odamlar bilan muomala qiladimi, qo'lida qog'oz kapalakday uchib, hali u eshikka, hali bu eshikka kirib chiqadimi — boshidan xayol arimay qo'ydi. Dim kabinetga bog'chadan muzdek havo, handalaknikimi, bosvoldi qovunnimi esga soladigan yalpiz hidi kirdi.

Nemis istehkomlarining ustini qoplagan chang va tutunmi, yoki muttasil sovurilayotgan tuproqmi—bilib bo'lmas edi.

Birinchi misolda yana diqqatni tortadigan narsa shuki, "hali" ravishi ayiruvchi bog'lovchi vazifasini bajarib, takrorlangan holda ayirib ko'rsatish, ta'kidlash ma'nosida qo'llangan.

2 - § UMUMLASHTIRUVCHI BIRLIKLARNING QO'LLANISHI BILAN BOG'LIQ USLUBIY HOLATLAR

Uyushgan bo'laklarda umumlashtiruvchi birliklarning qo'llanishida o'ziga xos murakkablik bor. Bu, ayniqsa, badiiy nutqda ochiq ko'rinadi. Umumlashtiruvchi birlik vazifasida "hamma narsa", "hammasi" kabi so'zlar qo'llanadi. Bu birliklar jamlash ma'nosini ifodalaydi :

Bolaligi o'tgan qishloqning odam siyrak ko'chalari, tepalikdagi baqaterak, allaqayoqda buzoq ma'rashi, anqib ketgan piyozdog' hidi, chumchuqlarning iniga kirib ketar oldida chirqirashi — hammasi unga qachondir juda—juda shirin o'tgan hayotini eslatayotganday bo'ldi.

Saida bu chog' qarshi devordagi suratlarni— Qalandarovning orden va medallar taqib oldirgan portretini, bo'yni ingichka, kallasi katta, shalpangquloq bir bolaning ko'zlarini katta-katta ochib va lablarini qimtib tushgan rasmini ko'zdan kechirmoqda edi.

Uyushgan bo'laklarda qo'llanuvchi umumlashtiruvchi birlikning joylashish o'rni ham uslubiy jihatdan muhimdir. Agar uyushgan bo'laklar umumlashtiruvchi birlik ma'nosini izohlab, aniqlab kelsa, umumlashtiruvchi birlik uyushgan bo'laklardan oldin joylashadi:

U nuqul sement to'g'risida — uning bir xurjunini eshak zo'rg'a ko'tarishi, u bilan tom shuvalsa qandoq bo'lishi haqidagi o'zining taxminlarini, sementlab qilingan to'g'on qanchalik pishiq bo'lishi va hokazolar to'g'risida gapirar edi.

A.Qahhor asarlarida umumlashtiruvchi birlikning uyushgan bo'laklardan keyin kelish hollari ham uchraydi. Bunday holatlarda umumlashtiruvchi birlik jamlash, umumlashtirish xarakteriga ega bo'ladi.

Chirchiqning ma'dan o'g'iti, ilmga sarf qilinayotgan million-million pul— shularning hammasi o'sha yigirma birni (yigirma bir mehnat kunini) birga (bir mehnat kuniga) tushirish uchun!

Xullas, uyushiq bo'laklar mohir so'z ustasi A.Qahhor asarlarida badiiy asarning ta'sirchanligini oshirishda uslubiy vosita sifatida keng qo'llanganki, bu yozuvchi mahoratini, uning grammatik kategoriyalardan o'rinli foydalanganini ko'rsatadi.

XULOSA

1.Uyushiq bo'laklar va ularning uslubiy xususiyatlari masalasi hozirgi o'zbek tilshunosligining muhim masalalaridan biridir.Uyushiq bo'laklarning o'ziga xos belgilari haqida anchagina tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularning badiiy asarlarda qo'llanishi bilan bog'liq uslubiy xususiyatlari yetarlicha o'rganilvagan.

2. Uyushiq bo`laklar, odatda, bir xil so`roqqa javob bo`ladi, bir xil so`z turkumi bilan ifodalanadi, sanash ohangi bilan aytiladi, o`zaro teng munosabatga kirishadi.

3. Gapning barcha bo`laklari uyushishi mumkin. Uyushgan egalar atoqli va turdosh otlar bilan, kishikik olmoshlari bilan, otlashgan so`zlar bilan ifodalanadi; o`zaro biriktiruvchi pauza va sanash ohangi yordamida, shuningdek, biriktiruvchi pauza , sanash ohangi va teng bog`lovchilar yordami bilan birikadi; sodda yoki tarkibli bo`ladi, umumlashtiruvchi bo`lak bilan ham qo`llanadi.

4. Uyushiq kesimlarning qismlari ham o`zaro teng munosabatga kirishadi, bir yoki bir necha egaga ergashadi, shuningdek, ikkinchi darajali bo`laklarni o`ziga ergashtirib keladi; ifodalanishiga ko`ra fe'l-uyushiq kesimlar va ot-uyushiq kesimlar farqlanadi.

Sodda gap tarkibida fe'l kesimlarning uyushishida o`ziga xoslik bor: uyushiq fe'l kesimlar bir egaga ergashishi sababli, sodda gap tarkibini murakkablashtiradi. Bu jihatdan gap qo`shma gapdan farqlanadi. Uyushgan kesimlar ham umumlashtiruvchi bo`lak bilan qo`llanishi mumkin.

5. Uyushiq bo`laklar muhim uslubiy vosita sanaladi. Ular badiiy asarlarda qahramonlarning qiyofasini chizishda, ularning xarakterli xususiyatlarini yoritishda keng qo`llanib, asarning badiiy qimmatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. А.Ҳожи́ев. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Т.,1985
2. Ғ.Абдурахмонов, Ш.Шукуров. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. Т.,1973
3. А.Нурмонов ва бошқ. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Т.,1992
4. Ғ.Абдурахмонов. Ўзбек тили грамматикаси. Т.,1996
5. И.Тошалиев. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. Т.,1976
6. А.Ғуломов, М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.,1987
7. А.Нурмонов. Гап ҳақида синтактик назариялар. Т.,1988
8. И.Каримов. Юксак маънавият -- енгилмас куч. Т., 2008
9. Д.Ашурова ва бошқ. Гапнинг уюшган ва ажратилган бўлаклари.Т.,1962
10. А.Ғуломов. Содда гап. Т., 1955
11. В.М.Насилов. Грамматика уйгурского языка. М.,1940

12. Г.Д.Санжеев. Грамматика калмыцкого языка. М.,1940
13. Н.П.Дыренкова. Грамматика шорского языка.М.,1941
14. А.Н.Кононов. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.,1960
15. М.Б.Балакаев. Современный казахский язык. Синтаксис. Алма-ата,1959
16. Д.Майриков. Однородные члены предложения в киргизском языке. Автореферат канд. дисс. М.,1956
17. И.А.Батманов. Очерк синтаксиса узбекского языка. Т.,1933
18. И.Саид, А.Йўлдошев. Грамматика. П кисм. Нахв. Т.,1936
19. Х.Ғозиев. Ўзбек тили грамматикаси. П кисм. Синтаксис. Т.,1941
20. В.В.Решетов. Современный узбекский язык. ч.1. Т.,1946
21. Ф.Камолов. Қушма гапларга доир масалалар. Т.,1955
22. А.Н.Кононов. Грамматика турецкого языка. Т.,1941
23. Е.И.Убрятова. Исследования по синтаксису якутского языка. М.,1950
24. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Т., 1987 – 1991
25. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Т.,1989
26. Мусо Тошмуҳаммад ўғли Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 19 томлик. Т., 1975 – 1980
27. Мирзакалон Исмоилий. Фарғона тонг отгунча. (роман) Т.,1995
28. Асқад Мухтор. Илдизлар. (қисса ва ҳикоялар) Т.,1984
29. Шароф Рашидов. Асарлар. 5 жилдлик. Т.,1981
30. Парда Турсун. Ўқитувчи. (роман) Т.,1972
31. Иброҳим Раҳим. Танланган асарлар. 3 томлик. Т.,1967
32. Ҳусайн Шамс. Душман. (роман) Т., 1984
33. Ғ.Ғулом. Мукаммал асарлар тўплами. 12 томлик Т.,1986
34. Ҳаким Назир. Қисса ва ҳикоялар. Т., 1991
35. Садриддин Айний. Қуллар. (роман) Т.,1952
36. Уйғун. Танланган асарлар. 3 томлик. Т.,1964
37. Ҳамид Олимжон. Зайнаб ва Омон.(достон) Т.,1976
38. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Танланган асарлар. 4 томлик. Т.,1979
39. O`zbek xalq ertaklari. 2 jildlik. Т.,1996
40. S.Abdulla. Mavlono Muqimiy. (roman) Т.,1996
41. P.Qodirov. Yulduzli tunlar. (roman) Т.,1999